



«TASDIQLAYMAN»

«CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY  
AND INNOVATION» MChJ direktori

\_\_\_\_\_ A.N. Ko

2021 yil «\_\_\_» avgust

# «A-PAY» ELEKTRON PULLAR TIZIMINING QOIDALARI

Toshkent



# 1. UMUMIY QOIDALAR

- 1.1. «A-Pay» Elektron pullar Tizimi Qoidalari (bundan keyin – Qoidalar) O‘zbekiston Respublikasining «To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida»gi Qonuniga va O‘zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarish va ishlatish Qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.
- 1.2. Mazkur Qoidalar «A-Pay» Elektron pullar Tizimi (bundan keyin – Tizim) faoliyati tartibini, Tizim Ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tartibini, Tizimning funksional imkoniyatlaridan foydalanishning yagona shartlari va tartiblarini belgilaydi.
- 1.3. «A-Pay» elektron pullar tizimi o‘z Ishtirokchilari o‘rtasida Elektron pullardan foydalangan holda to‘lovlar va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi.
- 1.4. «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ to‘lov tashkiloti Tizim Operatori hisoblanadi. Operator Tizim Ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzishni, Mijozlarni identifikatsiyalashni va texnologik qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlaydi (09.01.2021 yildagi 21-sonli litsenziya, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki tomonidan berilgan). Yuridik manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, A. Qahhor ko‘chasi, 9-tor ko‘cha, 1a-uy.
- 1.5. Tizim xizmat sifatida mavjud bo‘lib, undan foydalanish Operatorning mobil ilovasi orqali, Tizim Operatorining hamkorlari infratuzilmasi yordamida, [www.a-pay.uz](http://www.a-pay.uz) saytidagi Shaxsiy kabinet orqali amalga oshiriladi.
- 1.6. AO «Bank Apelsin» elektron pullarning Bank-Emitenti hisoblanadi. Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7a-uy.
- 1.7. Elektron pullar tizimining internetdagi rasmiy sayti: [www.a-pay.uz](http://www.a-pay.uz) (bunday keyin – Tizim sayti). Qoidalarning dolzarb nashri Tizimning rasmiy saytida e‘lon qilinadi.
- 1.8. Tizim quyidagi xizmatlarni ko‘rsatishni ta‘minlaydi:
  - 1.8.1. Elektron pullarni sotish (tarqatish) va ega bo‘lish xizmatlari;
  - 1.8.2. Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan to‘lovlarni qabul qilish va ishlov berish xizmatlari.
- 1.9. Tizim Ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qoidalar hamda Operator va Tizimning boshqa Ishtirokchilari o‘rtasida tuziladigan shartnomalar bilan tartibga solinadi.
- 1.10. Mazkur Qoidalarning amal qilishi Elektron pullarning boshqa tizimlarida to‘lovlarni amalga oshirish va/yoki Elektron pullardan foydalangan holda boshqa amaliyotlarni bajarish bilan bog‘liq munosabatlarga nisbatan tatbiq qilinmaydi va Bank ularda qatnashishni cheklamaydi.
- 1.11. «A-Pay» elektron pul Tizimining ishtirokchilari Emitentlar, Operatorlar, Agentlar, Merchantlar, jismoniy shaxs-Mijozlardir.
- 1.12. Mazkur Qoidalar «A-Pay» Elektron pul Tizimining barcha Ishtirokchilari uchun majburiydir. Ishtirokchilarning har biri boshqa Ishtirokchilarga zarur huquqiy layoqatga ega ekanligini (subyektlik huquqini), shu bilan birga, mazkur Qoidalarga qo‘shilish uchun zarur va yetarli bo‘lgan hamda ularning hamma shartlariga muvofiq majburiyatlarni bajarish uchun barcha huquqlar hamda vakolatlarni kafolatlaydi.
- 1.13. Operator va tegishli Ishtirokchi o‘rtasidagi kelishuvning mavjudligi/tuzilishi, Tizimda Ishtirokchi maqomini olishning sharti hisoblanadi. Ishtirokchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar shartlarini o‘z ichiga olgan aralash shartnomalar tuzilishiga ruxsat beriladi.

1. 14. Tizim Ishtirokchilari Tizimga qo'shilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga hamda Operator bilan tuzilgan shartnomalar shartlariga muvofiq Qoidalar va o'z zimmlariga olgan majburiyatlarga rioya etilishi uchun javobgardirlar. O'zbekiston qonunchiligiga rioya qilish Tizim Ishtirokchisining shaxsiy javobgarligi hisoblanadi.
1. 15. Agar Operator da Tizimdan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining buzishi mumkinligiga shubha uyg'otsa, Operator har qanday jismoniy shaxs, yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkorga Shartnoma tuzish va Tizimdan foydalanishni rad etishga haqli.
1. 16. «A-Pay» elektron pul tizimida to'lovlar Qoidalarga muvofiq Elektron pullarni bir Elektron pullar egasining elektron hamyonidan boshqa elektron pul egasining elektron hamyoniga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Tizimda har bir Elektron pullar egasi uchun Elektron hamyon shakllantiriladi. Har bir elektron hamyonga noyob identifikatsiya raqami beriladi, u Tizim tomonidan ishlab shakllantiriladi va ularni Tizimda dastlabki ro'yxatdan o'tkazish vaqtida beriladi.
1. 17. Qoidalarning shartlari Mijozlar, Agentlar va Merchantlar o'rtasidagi shartnomalarning shartlaridan ustunlikka ega. Mijoz, Agent va Merchant o'rtasidagi shartnomaning ayrim nizomlari Qoidalarga zid bo'lgan taqdirda Qoidalar ustunlikka ega bo'ladi.
1. 18. Tizimning faoliyati jarayonida Tizim Ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar bevosita Qoidalar bilan tartibga solinmagan yoki uning chegarasidan chiqib ketgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yorlari va Ishtirokchilar o'rtasidagi tegishli shartnomalar qo'llanadi.

## 2. MAZKUR QOIDALARDA QO'LLANILADIGAN ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Mazkur Qoidalarda «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida nazarda tutilgan tushunchalar, shuningdek, quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

2. 1. **«A-Pay» Elektron pullar Tizimi** yoki **Tizim** yoki **«A-Pay» Tizimi** – Elektron pullar tizimi bo'lib, Tizim Qoidalariga muvofiq Elektron pullardan foydalangan holda to'lovlar va boshqa amaliyotlar uchun o'zida dasturiy-ta'minot vositalari, hujjatlashtirish va tashkiliy-texnik tadbirlarning majmui hisoblanadi;
2. 2. **Elektron pullar tizimining Operatori** – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tasdiqlangan va ro'yxatdan o'tgan, Tizimning faoliyatini ta'minlovchi, hisob-kitob ishtirokchilari o'rtasidagi axborot va texnologik aloqani, jumladan, Tizim Qoidalarini belgilaydigan va ularga rioya qilinishini nazorat qiladigan Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlar bo'yicha hisob-kitob ishtirokchilariga axborotni yig'ish, ishlov berish va tarqatish bo'yicha xizmatlarni ta'minlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ;
2. 3. **Elektron pullar** – elektron shaklda saqlanadigan va Tizimning boshqa Ishtirokchilari tomonidan Tizimda to'lov mablag'i sifatida qabul qilinadigan Elektron pullar Emitentining so'zsiz va qaytarilmaydigan pul majburiyatidir;
2. 4. **Elektron pullarning Emitenti** yoki **Emitent** – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq va Operator bilan tuzilgan shartnomaga asosan Tizimda Elektron pullarni chiqarish va to'lashni amalga oshiradigan Banklar;

2. 5. **Tizim Ishtirokchisi (Ishtirokchi)** – tuzilgan shartnomaga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq Elektron pullarni chiqarish, o‘tkazish, qabul qilish, sotib olish, sotish, to‘lash, ulardan foydalangan holda boshqa amaliyotlarni amalga oshirish bo‘yicha huquqi yoki majburiyati yuzaga keladigan Elektron pullar tizimining subyekti
2. 6. **Mijoz** – Elektron pullardan foydalangan holda to‘lovlar, o‘tkazmalar va boshqa amaliyotlarni amalga oshirish maqsadida Tizimdan foydalanuvchi jismoniy shaxs
2. 7. **Mijoz maqomi** - Mijozning Tizimdagi Elektron pullarni chiqarish tashabbusi, uzatish, qabul qilish, foydalanish, sotib olish yoki so‘ndirish tashabbusi imkoniyatini belgilaydigan Tizim doirasidagi holati.
2. 8. **Identifikatsiyalanmagan Mijoz** – shaxsi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan tartibda aniqlanmagan, ro‘yxatdan o‘tgan Mijoz. Elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi – jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta amaliyotning eng ko‘p miqdori bazaviy hisoblash miqdoridan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan miqdordan oshmasligi lozim. Elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi – jismoniy shaxsning elektron moslamalaridan birida saqlanadigan Elektron pullarning eng ko‘p miqdori bazaviy hisoblash miqdorining besh baravar qiymatidan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan miqdordan oshmasligi lozim.
2. 9. **Identifikatsiyalangan Mijoz** – Mijozni Identifikatsiyalash tartibidan o‘tkazish orqali shaxsi aniqlanadigan, Tizimda ro‘yxatdan o‘tgan Mijoz. Elektron pullarning Identifikatsiyalangan egasi – jismoniy shaxs tomonidan amalga oshiriladigan bitta amaliyotning eng ko‘p miqdori bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan yoki O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida o‘rnatilgan miqdordan oshmasligi lozim.
2. 10. **Elektron pullar tizimining Agenti (Agent)** – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq elektron pullar Emitenti yoxud elektron pullar tizimining Operatori bilan tuzilgan shartnoma asosida jismoniy shaxslardan Elektron pullarni olish va sotish huquqiga ega yuridik shaxs.
2. 11. **Merchant** – Tizimning Ishtirokchisi hisoblanib, tijorat faoliyatini amalga oshiradigan va jismoniy shaxslardan Elektron pullarni Operator va/yoki Emitentlar bilan tuzilgan shartnomaga asosan fuqarolik huquqi bitimlari bo‘yicha qabul qiladigan hamda Mijozga tasdiqlovchi to‘lovni – savdo chekini beradigan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor
2. 12. **Elektron pullarning Egasi (pul Egasi)** – a) Emitent, Operator, Agent yoki Tizim Ishtirokchilarining boshqa jismoniy shaxslaridan Elektron pullarni oluvchi jismoniy shaxs, b) Agentlar, v) Elektron pullarni jismoniy shaxslardan fuqarolik-huquqiy bitimlar asosida to‘lov sifatida olgan SXKK. Elektron pullar Egasining huquqi Elektron pullarni olgan vaqtidan boshlab paydo bo‘ladi.
2. 13. **Elektron Hamyon (Hamyon)** – Elektron pullar, va/yoki Tizim Ishtirokchilari ning unga kirishini ta‘minlaydigan mikroprosessor chipi, shaxsiy kompyuterning dasturiy ta‘minoti, boshqa dasturiy-ta‘minot vositasi. Hamyonda Elektron pullarning hisoblari aks etadi.
2. 14. **Elektron pullardan foydalanish** – elektron pullarni egasi tomonidan fuqarolik-huquqiy bitimlar bo‘yicha Elektron pullar tizimining boshqa ishtirokchisiga to‘lovni va (yoki) elektron pullarga egalik qilish huquqini o‘tkazish bilan bog‘liq boshqa amaliyotlarni amalga oshirish maqsadida o‘tkazish;
2. 15. **Elektron pullarni chiqarish (Chiqarish)** – Emitent tomonidan Elektron pullarni Mijozlar va Agentlarga ularning nominal qiymatiga teng pullarga almashtirish va ularni to‘lash majburiyati orqali berishni nazarda tutuvchi to‘lov xizmati

2. 16. **Elektron pullarni to'lash** – Tizim Qoidalari, Ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomada va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarda Emitentning Egasi tomonidan taqdim etilgan ularning nominal qiymatiga teng bo'lgan pul mablag'idagi Elektron pullarini almashtirish yoxud ularni taqdim qilmasdanoq to'lash bilan bog'liq amaliyot;
2. 17. **Elektron pullar bilan almashuv amaliyotlari** – bir Emitent tomonidan chiqarilgan Elektron pullarni boshqa Emitentga almashtirish bo'yicha amaliyotlar.
2. 18. **To'lov** – Mijozning Merchant oldida sotib olgan tovarlari, ishlari yoki xizmatlari uchun Merchantga pul o'tkazmalari orqali majburiyatining bajarilishi.
2. 19. **O'tkazma** – Elektron pullarni bitta Elektron hamyondan boshqasiga o'tkazish.
2. 20. **Elektron hamyonni blokirovkalash** – Elektron pullar egasining elektron hamyonida saqlanayotgan Elektron pullardan foydalanishni to'liq yoki vaqtincha taqiqlash.
2. 21. **Tariflar** – ko'rsatilgan xizmatlarga nisbatan qo'llaniladigan Tizim Operatorining komission mukofotlash tizimi.
2. 22. **Autentifikatsiya** – «A-Pay» Elektron pullar Tizimi Ishtirokchilarining identifikatsiyalash ma'lumotlarini tasdiqlash jarayoni.
2. 23. **Masofaviy identifikatsiya** – Operatorning Mijoz-jismoniy shaxsni uning shaxsiy ma'lumotlarini kiritgan holda Elektron hamyonning identifikatsiyalangan foydalanuvchisi sifatida; yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorni so'ralayotgan hujjatlar asosida shaxsini aniqlashni o'z ichiga olgan tartibi.
2. 24. **Shaxsiy kabinet** – ro'yxatdan o'tgan Tizim Ishtirokchisining mazkur Ishtirokchiga tegishli bo'lgan Hamyonni boshqarish vositasi bo'lib, u shaxsiy ma'lumotlar sozlamalari, Tizimdagi Elektron pul hisobvaraqlari tarixi va balansini aks ettiradi.
2. 25. **«A-Pay| Elektron pullar tizimining Qoidalari – (Tizim Qoidalari)** – Operator tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq belgilangan Tizimning Internet saytida joylashtirilgan qoidalari bo'lib, unga ko'ra, Elektron pullarni chiqarish, sotish, sotib olish, qabul qilish, o'tkazish, to'lash va ulardan Tizimda foydalangan holda boshqa amaliyotlar amalga oshiriladi. Tizim Qoidalaridan tashqari boshqa ichki hujjatlar Tizim Ishtirokchilarining munosabatlarini tartibga solmaydi.
2. 26. **Tizim/Operatorning internet-manbasi** – <https://www.a-pay.uz>
2. 27. **Emitent/Bankning internet-manbasi** – <https://kapitalbank.uz>

### 3. TO'LOV TASHKILOTLARI TOMONIDAN KO'RSATILADIGAN TO'LOV XIZMATLARINING TA'RIFI

3. 1. Elektron pullarni sotish (tarqatish) xizmatlari Operator va Agentlar orqali elektron pullarni sotish hisoblanadi.
  3. 1. 2. Tizim Operatori Elektron pullar Emitenti bilan tuzilgan shartnoma asosida «A-Pay» Elektron pullar Tizimining Agenti sifatida ishtirok etadi. Emitentdan Elektron pullarni olish va ularni Mijozlar – jismoniy shaxslarga sotish xizmatlarni ko'rsatish hisoblanadi. Operatorning Elektron pullarni sotgani uchun komission mukofotlash miqdori Tizim Tariflari va Tizimning saytida aks etadi.

- 3.1.3. Operator Tizimning Agenti sifatida ishtirok etib, Elektron pullarni Mijozlar - jismoniy shaxslardan ularning to'lov qiymatini naqd pul mablag'ida sotib olish, shuningdek, Mijozlar - jismoniy shaxslardan olinayotgan Elektron pullarni tegishli Mijozlar - jismoniy shaxslar (Elektron pullarning egalari) ning bank hisob raqamlari va to'lov kartalariga naqdsiz pul o'tkazmalarini amalga oshirish huquqiga ega.
- 3.2. Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lovlarni qabul qilish va ishlov berish xizmatlari Tizimning faoliyatini ta'minlashni nazarda tutadi (Elektron pullardan foydalangan holda amaliyotlarni bajarishda shakllanadigan axborotni yig'ish, ishlov berish va uzatishni amalga oshirish).
- 3.3. Operator Tizimda quyidagi xizmat turlarini ta'minlaydi:
  - 3.3.1. jismoniy, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni Tizimga ulash (ro'yxatdan o'tkazish) va qayd etilgan shaxslarning Tizimda qatnashishini to'xtatish;
  - 3.3.2. Emitent tomonidan Elektron pullarni chiqarish va to'lash;
  - 3.3.3. Elektron pullar egalari Elektron pullarni olishi, sotishi (tarqatish), to'lashga taqdim etish;
  - 3.3.4. elektron pullardan foydalangan holda barcha foydalanuvchilar/ishtirokchilarning tranzaksiyalari/amaliyotlari haqidagi axborotni yig'ish, saqlash, ishlov berish va topshirish;
  - 3.3.5. umuman olganda Tizimning ishi;
  - 3.3.6. Elektron pullarning qoldiqlarini Ishtirokchilarning hamyonlarida aks etishi va ro'yxatdan o'tishi;
  - 3.3.7. Ishtirokchilarning hamyonlarida tranzaksiyalarning aks etishi, amalga oshirilgan amaliyotlarga qarab balansning o'zgarishi;
  - 3.3.8. Ishtirokchilarning Elektron pullarning emissiyasi bo'yicha, Elektron pullarni to'lash, Ishtirokchilar o'rtasida Elektron pullarni o'tkazish bo'yicha amaliyotlari;
  - 3.3.9. Ishtirokchilarning hamyonlari bo'yicha zarur hisobotni shakllantirish;
  - 3.3.10. Ishtirokchilar tomonidan Tizim Qoidalariga rioya qilinishini nazorat etish;
  - 3.3.11. Ishtirokchilarning (ishtirokchilarga) to'lov va axborot ma'lumotlariga ishlov berish va berish;
  - 3.3.12. Ishtirokchi bilan Tizimda qatnashishi bo'yicha shartnoma tuzish;
  - 3.3.13. Tizimda tavakkallarni boshqarish tizimini belgilash;
  - 3.3.14. axborot xavfsizligini va Tizimning uzluksiz ishlashini ta'minlash choralari rioya qilish;
  - 3.3.15. Tizim Ishtirokchilarini taqdim etilayotgan xizmatlardan teng va ochiq foydalanishini ta'minlash;
  - 3.3.16. Ishtirokchilar o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan boshqa majburiyatlarni bajarish.
- 3.4. Tizim Ishtirokchilari uchun yuqorida ko'rsatilgan xizmatlar ro'yxati yakuniy emas, ro'yxat tegishli shartnomalarga muvofiq Operator sayti va (yoki) mobil ilovada qo'shimcha axborot joylashtirish yo'li bilan to'ldirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin, shuningdek, Tizim rivojlanishidan kelib chiqqan holda to'ldirilishi mumkin.

## 4. TIZIM ISHTIROKCHILARIGA TO'LOV XIZMATLARINI KO'RSATISHNING TARTIBI VA MUDDATLARI

- 4.1. Elektron pullarni chiqarish Emitent-Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, tuzilgan shartnomalarning Qoidalari va shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 4.2. Operator Xizmat ko'rsatishning uzluksizligini ta'minlash maqsadida Emitent sifatida har qanday banklarni jalb qilish huquqiga ega.
- 4.3. Operatorning Emitent bilan shartnomasi yagona huquqiy va axborot-texnik shartlarni va Tizimda Elektron pullarni chiqarish, ishlatish va to'lash bo'yicha talablarni belgilaydi.
- 4.4. Emitent tomonidan chiqariladigan Elektron pullar faqat O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifoda qilinishi mumkin. Bitta Elektron pullarning nominal qiymati bir so'mga teng.
- 4.5. Emitent Elektron pullarni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq muomalaga chiqarish va to'lash (qabul qilish) majburiyatini oladi.
- 4.6. Emitent Operatordan qabul qilingan pulning umumiy qiymatini uning hisobidagi chiqarilgan (emissiya qilingan) Elektron pullarning umumiy qiymati bilan o'zaro mutanosibligini ta'minlaydi.
- 4.7. Emitent tomonidan Tizimga Elektron pullarni chiqarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
  - 4.7.1. Emitent Operatordan, Agentdan Elektron pullarni chiqarish to'g'risida buyurtmani qabul qiladi;
  - 4.7.2. Emitent Elektron pullarni chiqarishni amalga oshiradi;
  - 4.7.3. Operator Elektron pullarni o'zining hisobga olish Tizimida taqsimlaydi;
- 4.8. Operator Emitent nomidan Tizimning boshqa Ishtirokchilari bilan shartnomalar tuzish huquqiga ega.
- 4.9. Operatorning Mijoz bilan Tizimdan foydalanish to'g'risidagi Shartnomasi Mijozning Ommaviy shartnoma (oferta) ga Tizimda elektron hamyonning ro'yxatdan o'tishi va ochilishi jarayoni tugaguncha bo'lgan muddatda ushbu shartnoma shartlariga rozi bo'lgan (shartlarni qabul qilgan) holda qo'shilishi shaklida tuziladi. Mijozning Ommaviy ofertaga roziligi uning tomonidan shartnoma shartlarini so'zsiz to'liq qabul qilishini anglatadi va ikki tomonlama yozma shartnomani tuzish bilan teng hisoblanadi.
- 4.10. Elektron pullarni sotishda Operator Tizimda qatnashayotgan jismoniy shaxsga Emitent va Operatorning nomlanishi va joyi, to'lov tashkiloti litsenziyasining raqami, Elektron pullardan foydalanish shartlari, Operator tomonidan Elektron pul egasidan pul chiqarganda, ishlatganda va elektron pullarni yopganda komission mukofot olish tartibi va miqdori, e'tirozlar berish usullari va ularni ko'rib chiqish tartibi, Operator bilan aloqa to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.
- 4.11. Mijozlar - jismoniy shaxslar tomonidan Elektron pullarni sotib olish naqd pullarni to'lash yoki Operator, Agentning tegishli hisob raqamiga pulni naqd pulsiz o'tkazish tartibida amalga oshiriladi. Mijozlar pul mablag'larini banklarning kassasi orqali, bank hisob raqamlari va kartalaridan o'tkazishlari, Agentlarning terminallari, Operatorning mobil ilovasi orqali, shuningdek, istalgan mumkin bo'lgan usullarda kiritishlari mumkin.
- 4.12. Operatorga, Agentga pul kiritish yoki o'tkazishda Mijoz - jismoniy shaxs uning tomonidan sotib olingan Elektron pullar o'tkaziladigan Elektron hamyonning identifikatsiyalangan kodini ko'rsatadi.

4. 13. Uchinchi shaxslar tomonidan Mijozning elektron hamyoniga pul kiritilgan va Elektron pullar o'tkazilgan taqdirda mazkur elektron hamyonning egasida olingan Elektron pullarga nisbatan huquq va majburiyatlar yuzaga keladi. Uchinchi shaxslarning mazkur harakatlari Emitent tomonidan Mijoz – jismoniy shaxsning foydasi uchun amalga oshirilgan deb baholanadi va uchinchi shaxslar va Operator, Agent, Emitent o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.
4. 14. Elektron pullarning Operator, Agent tomonidan Mijozga sotilishida Agent Mijoz (jismoniy shaxs) ga uning tomonidan Elektron pullar sotib olganlik holati to'g'risida guvohlik beruvchi kvitansiya (chek) ni berib, bu Mijoz (jismoniy shaxs) Operatorga, Agentga tegishli pullarni kiritishini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Kvitansiya (chek) Operator, Agent tomonidan tegishli Mijozning elektron hamyoniga qog'oz shaklida ham, elektron usulda ham jo'natish yo'li bilan beriladi.
4. 15. Elektron pullarni sotishda beriladigan kvitansiya (chek) da quyidagi rekvizitlar bo'lishi kerak: Emitent va Operatorning nomlanishi;
- Amaliyotni bajarish sanasi (kun, oy, yil) va vaqti (soat, daqiqa, soniya); elektron hamyonning kodi
  - Amaliyotning tartib raqami;
  - Chiqarilgan Elektron pullarning qiymati;
  - Elektron pul egasiga tegishli bo'lgan elektron hamyonning identifikatsion kodi;
  - Komission mukofot miqdori (undirilgan holda);
4. 16. Tizim Ishtirochilari uchun mumkin bo'lgan amaliyotlar:
4. 16. 1. Tizim Mijoz – jismoniy shaxsga Tizimda ro'yxatdan o'tganidan so'ng quyidagi amaliyotlardan foydalanish mumkin:
- qoidalarga muvofiq Elektron pullarni sotib olish, Tizimning boshqa Ishtirokchilari – jismoniy shaxslardan Elektron pullarni bepul olish va Tizimda Elektron pullar bilan amaliyotlarni mazkur Qoidalarga muvofiq - kunu tun amalga oshirish;
  - elektron pullarni Tizimda boshqa Elektron pul egasi - jismoniy shaxsning Elektron hamyoniga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda o'tkazish;
  - uning ixtiyorida bo'lgan Elektron pullarni to'lashni taqdim etish;
  - istalgan vaqt davrida Elektron hamyondagi Elektron pullarning mavjudligi, maqomi, harakatlanish tarixini ko'rib turish;
  - o'zining Elektron hamyonining balansini ko'rib turish (so'rov vaqtidagi dolzarbligidan kelib chiqib);
  - tizimning faoliyatiga tegishli ma'lumot va boshqa axborotni olish.
4. 16. 2. Merchantlar Tizimda ro'yxatdan o'tganlaridan so'ng quyidagi amaliyotlardan foydalanishlari mumkin:
- o'zining Elektron hamyonining balansini ko'rib turish (so'rov vaqtidagi dolzarbligidan kelib chiqib);
  - elektron pul egasi – jismoniy shaxsdan Elektron pullarni mazkur Qoidalarga muvofiq olish;
  - uning ixtiyoridagi Elektron pullarni to'lashga taqdim etish;
  - tizimning faoliyatiga tegishli ma'lumot va boshqa axborotni olish.
4. 16. 3. Agentlar Tizimda ro'yxatdan o'tganlaridan so'ng quyidagi amaliyotlardan foydalanishlari mumkin:
- o'zining Elektron hamyonining balansini ko'rib turish (so'rov vaqtidagi dolzarbligidan kelib chiqib);



- mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda Elektron pullarni sotib olish, ularni tarqatish va to'lashga taqdim etish;
  - tizimning faoliyatigi taalluqli ma'lumotli va boshqa axborotni olish.
- 4.16.4. Emitent Tizimda quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:
- tizimda ro'yxatdan o'tgan Mijozlar, Agentlar - elektron hamyonlarning egalari Elektron pullarni emissiya qilish va sotish;
  - tizim Ishtirokchilari: Operator, Agent, Merchant va Identifikatsiyalangan mijozlar - jismoniy shaxslarning Elektron pullarini to'lash;
  - emitent tomonidan emitatsiya qilingan va sotilgan Elektron pullarning hisobini olish;
  - tizim ishining texnologiyasiga muvofiq Operator bilan axborot almashish;
  - tizimda Elektron pullar bilan amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha ma'lumotlarni ko'rib chiqish;
  - operator bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq boshqa amaliyotlar.
- 4.17. Tizim Operatori tomonidan amaliyotlarga ishlov berish, amaliyot topshiriqlarini shakllantirish va ularni hisob-kitob bankiga berish aniq vaqt rejimida olib boriladi.
- 4.18. Hisob-kitoblarda vaqtning yagona shkalasi sifatida Toshkent shahrining vaqti e'tirof etiladi.
- 4.19. Tizim Operatorining ish kunlari besh kunlik ish haftasini o'rnatish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlariga muvofiq hisoblanadi.
- 4.20. Tizim Operatorining amaliyot kunlari kalendar kunlari hisoblanib, 00:00:00 dan 23:59:59 ga qadar bo'ladi.
- 4.21. Ishtirokchilarning ko'rsatmalarini ijroga olish kunu tun, jumladan, dam olish va bayram kunlari ham amalga oshiriladi.

## 5. ISHTIROKCHILARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Tizim Ishtirokchilari mazkur Qoidalarda, shuningdek, Operator va Tizim Ishtirokchilari o'rtasidagi shartnomalarda bayon etilgan talablarga rioya qilishlari majbur. Qoidalar va (yoki) shartnomaviy munosabatlarga rioya qilmaslik Tizimda shunga o'xshash rioya qilmaslik sodir etgan Ishtirokchining ishtirokini to'xtatish uchun asos bo'lishi mumkin.
- 5.2. Operator bilan shartnoma tuzganidan so'ng Emitent Tizim ishtirokchisiga aylanadi. Emitent va Operator o'rtasidagi o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Tizimning mazkur Qoidalar, shuningdek, Emitent va Operator o'rtasida tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi.
- 5.3. Tizimdagi faoliyati doirasida Emitent amaldagi qonunchilik va Operator tomonidan belgilangan cheklovlar va imtiyozlarni hisobga olgan holda quyidagi amaliyot turlarini amalga oshiradi va xizmat majburiyatlarini bajaradi:
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq Elektron pullarni chiqarish boshlanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankini xabardor qiladi;
  - Elektron pullarni chiqarish boshlanishidan oldin Emitentning ixtisoslashtirilgan hisob raqamini ochadi;
  - elektron pullarning chiqarilishi va yopilishini ta'minlaydi, shu jumladan, Tizim ishtirokchilariga Emitent tomonidan qayd etilgan to'lov xizmatlarini taqdim etish shartlarini tegishli tarzda yetkazadi;

- chiqarilgan va yopilgan Elektron pullarning hisobini yuritadi;
- axborot va ma'lumotlarni Operator va Emitent o'rtasida qabul qilingan shartlar va tartiblarga muvofiq Operator bilan almashib boradi;
- uning tomonidan chiqarilgan Elektron pullarning umumiy qiymatining Elektron pullarning egalari qabul qilgan pulning umumiy qiymatiga muvofiqligini ta'minlaydi;
- elektron pullar tegishli bo'lgan egalari va qiymatlar haqidagi ma'lumotlarni, shuningdek, davlat idoralari va vakolatli shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar va doirada Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirgan amaliyotlari haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.
- o'zining boshqa Ishtirokchilar oldidagi pul majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajaradi.
- axborot xavfsizligini ta'minlash vositalari va usullari to'g'risidagi axborot, shaxsiy ma'lumotlar va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy muhofaza qilinishi lozim bo'lgan boshqa ma'lumotlarning muhofaza qilinishini ta'minlaydi;
- o'zining autentifikatsiya ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlaydi va Emitent nomidan Tizimda faoliyat yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslarga bunday ma'lumotlardan foydalanishni cheklaydi;
- bankka oid va qonun bilan muhofaza qilinadigan boshqa sirlarga rioya etilishini kafolatlaydi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiq Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirishda ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlaydi;
- Tizim ishlashi doirasida Operatorga quyidagi vazifalarni bajarish vakolatini beradi:
- Ishtirokchilarni Qoidalar, Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirish tartibi, Elektron pullardan foydalanish bilan bog'liq risklar, Elektron pullardan foydalangan holda amaliyotlarni amalga oshirishda da'vo qo'zg'atish usullari va ularni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish.
- Tizimning ishlashi doirasida Agentlar, Mijozlar Merchantlar bilan shartnomalar, shu jumladan ofertalar shaklida va qo'shilish shartnomalarini tuzish.
- Agent va Operator o'rtasidagi shartnomada ko'zda tutilgan tartibda Elektron pullarni Agent tomonidan sotish yoki sotib olishda Mijozga uning pul kiritganligini yoki unga pul summasi berilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatni berishini ta'minlash.
- Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirishda Tizim Mijozlarini Identifikatsiyalangan va Identifikatsiyalanmagan Mijozlar sifatida aniqlash imkoniyatini ta'minlash.
- Ishtirokchilarning so'roviga ko'ra, Ishtirokchi tomonidan Tizim doirasida Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotni taqdim etish.
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Qoidalar va Ishtirokchilar bilan tuzilgan tegishli shartnomalarda belgilangan asoslar bo'yicha Ishtirokchilarning Elektron Hamyonlarini to'liq yoki qisman bloklashni amalga oshirish.
- Elektron pullar Egasidan Elektron pullarning noto'g'ri uzatilganligi, yo'qolganligi, o'g'irlanganligi va Hamyondan ruxsatsiz foydalanilganligi aniqlanganligi to'g'risidagi bildirishnomalarni qabul qilish.
- Ishtirokchilar o'rtasida Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan barcha amaliyotlarni qayd etishni ta'minlash, shuningdek, Elektron pullardan foydalanishda shakllangan ma'lumotlarni u shakllangan, jo'natilgan yoki qabul qilingan formatda uning yaxlitligiga va dahlsizligiga rioya qilgan holda kamida 5 (besh) yil davomida saqlash.
- Emitentning Tizimdagi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'yicha boshqa Ishtirokchilarning murojaatlarini qabul qilish va ularga ishlov berishni ta'minlash.

- xavfsizlik taomillari va axborotni tizimga ruxsatsiz kirishdan himoya qilish Tizimida qo'llaniladigan dasturiy-texnik vositalarga ruxsatsiz kirishning oldini olish bo'yicha vositalar va chora-tadbirlarni ishlab chiqish, amalga oshirish.
  - Elektron pullardan foydalanish miqdori bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan cheklovlarga rioya etilishini ta'minlash.
  - Elektron pul egasining so'roviga binoan Elektron puldan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ko'chirma taqdim etish.
  - O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq firibgarlikni aniqlash va oldini olish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish maqsadida Tizimda tashkiliy va amaliy tadbirlarni ta'minlash va amalga oshirish bo'yicha choralar ko'rish;
  - Agentlarning Tizimda ishtirok etishi bilan bog'liq faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash.
  - Tizimning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq ishlashini ta'minlash.
  - Hamyonlardagi Elektron pullar qoldig'i va ularning Elektron pullar bilan amalga oshirilgan amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumotlarning doimiy hisobini yuritish.
  - Merchantlar tomonidan savdo chekini berishni ta'minlash.
  - Elektron pul Egalarining Elektron hamyonlaridan Egasining bank hisobvarag'iga Elektron pullar chiqarilishini ta'minlash;
  - Tizimning Elektron hamyonlarini Agentlar kanallari orqali to'ldirishni ta'minlash;
  - Mijozga tegishli bildirişnoma yuborish orqali Elektron Pullardan foydalangan holda har bir amaliyotning bajarilishi haqida xabardor qilish.
  - Ishtirokchilar bilan tuziladigan shartnomalar asosida Ishtirokchilardan haq undirishni amalga oshirish.
  - Elektron pullarni Chiqarish va So'ndirish bilan bog'liq funksiyalarni bundan mustasno qilgan holda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan Emitentga yuklangan boshqa vazifalar.
5. 4. Emitent quyidagi huquqlarga ega:
- tuzilgan Shartnomaga muvofiq o'z vazifalarini Operatorga topshirish;
  - tegishli so'rov yuborilgandan boshlab 45 (qirq besh) kungacha bo'lgan muddatda shaxsiy kabinetdagi hisobotlarga kirish huquqiga ega bo'lish;
5. 5. Elektron pullar Emitent tomonidan Tizim Ishtirokchisining elektron hamyonida Elektron pullarning mavjud miqdori to'g'risidagi axborot ifoda ettirilgan paytdan boshlab chiqarilgan (berilgan) deb hisoblanadi.
5. 6. Emitent o'z zimmasiga uning tomonidan chiqarilgan Elektron pullarni ularning nominal qiymatiga muvofiq to'lash bo'yicha so'zsiz va qaytarib bo'lmaydigan pul majburiyatini oladi. Elektron pullar ruxsatsiz chiqarilgan taqdirda mazkur bandning sharti tatbiq qilinmaydi.
5. 7. Operator Tizim faoliyati doirasida amaldagi qonunchilik va Operator tomonidan o'rnatilgan cheklov va imtiyozlarni hisobga olgan holda quyidagi amaliyot turlarini amalga oshiradi va xizmat majburiyatlarini bajaradi:
- Tizim Ishtirokchilarining axborot va texnologik munosabatlarini ta'minlaydi;
  - firibgarlik, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish hamda ommaviy qirg'in quollarini tarqatishni moliyalashtirish va boshqa noqonuniy amaliyotlarni aniqlash va oldini olish maqsadida O'zbekiston qonunchiligi talablari asosida Tizimda tashkiliy amaliy choralarni ta'minlash va amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi;
  - Tizimning kechayu kunduz uzluksiz ishlashini, shu jumladan Tizim Ishtirokchilarini texnik jihatdan va axborot bilan qo'llab-quvvatlash xizmatining kechayu kunduz ishlashini ta'minlaydi;

- Agentlar, Merchantlar, Emitentlarni jalb qiladi, ularni jalb qilishda Agentlar, Merchantlar, Emitentlar ro'yxatini yuritadi;
- shartnomalar tuzilishi mumkin bo'lgan Agentlar, Merchantlar, Emitentlar Operator tomonidan jalb qilinganda talablarni, shu jumladan texnologik ta'minot, ma'lumot taqdim etish bo'yicha talablarni belgilaydi;
- Tizim ishtirokchilariga ushbu Qoidalar va Tizim Ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomalar shartlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatadi;
- Tizim saytining axborotli va amaliy ishlashini ta'minlaydi, Tizim saytida mavjud bo'lgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlaydi;
- Tizim Mijozlarini unga uzatilayotgan Elektron pullar Emitentlari to'g'risida xabardor qiladi;
- zarurat tug'ilganda mazkur Qoidalar, Tariflar va tegishli shartnomalarga o'zgartirish kiritib, yangi tahrirdagi Qoidalar, Tariflar, Shartnomalarni yoki o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritgan holda Operator resursida chop etadi;
- tavakkalchilikni boshqarish tizimlarining mavjudligi va faoliyatini, faoliyatning uzluksizligi, axborot xavfsizligi, ma'lumotlarni himoya qilish va mahfiyligi, jumladan, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadlarni legallashtirish (yuvish) ga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi ichki nazoratni ta'minlaydi;
- tizimning va Tizim Ishtirokchilarining unda joylashgan axborotini uchinchi shaxslarning ruxsatsiz kirishidan, jumladan, xakerlik hujumidan himoyasini ta'minlaydi;
- tizim faoliyatining tashkiliy-me'yoriy va texnik shartlarini, jumladan, Tizim ishtirokchilarini ulash (ro'yxatdan o'tkazish), ularning Tizimda identifikatsiyalash va autentifikatsiyalash jarayonlaridan o'tishini, Tizimga kirish va ishtirokni to'xtatish, Tizim vazifasiga o'zgarish va qo'shimchalar kiritilishini belgilaydi hamda boshqaradi;
- operator bilan, shu jumladan Emitentning topshirig'iga ko'ra, Tizimning boshqa ishtirokchilari bilan tuzilgan shartnomaviy kelishuvlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
- Emitentdan Elektron pullar chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qiladi va olingan ma'lumotlarni Ishtirokchilarning elektron hamyonlari balansida aks ettiradi;
- Qoidalar va tuzilgan Shartnomalar shartlariga muvofiq kiritilgan Elektron pullarni Mijozning elektron hamyoniga kirim qiladi;
- identifikatsiyalash taomillarini amalga oshiradi va Tizim Ishtirokchilarini lozim darajada tekshirish, shu jumladan Tizim Ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni identifikatsiyalash va muntazam yangilab borish choralarini ko'radi;
- Ishtirokchini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshiradi va Ishtirokchi ro'yxatga olishning belgilangan tartibi va ushbu Qoidalarning talablariga rioya qilgan holda Operator belgilagan cheklovlar mavjudligini hisobga olib Ishtirokchiga Operator ko'rsatadigan xizmatlardan tegishli hajmda foydalanish imkoniyatini beradi;
- Tizimda Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirayotganda Tizim ishtirokchilari – jismoniy shaxslarning Tizimda Elektron pullarning identifikatsiya qilingan va identifikatsiya qilinmagan egalari sifatida aniqlanishini ta'minlaydi;
- Elektron pullar egalarning identifikatsiya qilingan va identifikatsiya qilinmagan amaliyotlari summolari bo'yicha O'zbekiston qonunchiligiga va ushbu Qoidalarga muvofiq Tizimda cheklovlar o'rnatilishi va ularga rioya etilishini ta'minlaydi, shuningdek Tizimda Mijozning maqomidan kelib chiqqan holda O'zbekiston qonunchiligida belgilangan chegaralardan oshib ketadigan Elektron pul summolari bo'yicha ushbu cheklovlarga rioya etilishini hamda ularni amalga oshirishning imkonli emasligini nazorat qiladi;
- Tizimdagi tranzaksiyalarning Qoidalarga muvofiq bajarilishini ta'minlaydi va Tizimda bajariladigan amaliyotlarni qayta ishlaydi;

- Elektron pullar o'tkazmalarini amalga oshirishda, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablarga muvofiq axborotning himoya qilinishini ta'minlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy muhofaza qilinishi lozim bo'lgan axborot xavfsizligini ta'minlash vositalari va usullari to'g'risidagi axborot, shaxsiy ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarning himoya qilinishini ta'minlaydi;
- Elektron pul egalarining elektron hamyonlaridagi Elektron pul qoldig'i va ularning Elektron pullar bilan amalga oshirilgan amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumotlarning hisobini yuritadi;
- Elektron pul egasining so'roviga binoan elektron hamyondan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron ko'chirma taqdim etadi.
- Tizim Ishtirokchilari o'rtasida ma'lumot almashish va Tizim Ishtirokchilari foydasiga to'lovlarni amalga oshirish, elektron hamyonlardan pul o'tkazish, to'ldirish va chiqarish uchun o'zaro hamkorlikning texnik imkoniyatlarini Tizim Ishtirokchilariga taqdim etadi;
- Tizim Ishtirokchilariga Emitent va Operator kanallari orqali Tizimdan foydalangan holda Tizimning Elektron hamyonlaridan Elektron pullarni so'ndirish, Elektron hamyonlar o'rtasida Elektron pul o'tkazish, mahsulotlar/ishlar/xizmatlar uchun Merchantlar foydasiga to'lovlarni amalga oshirishning texnik imkoniyatini taqdim etadi;
- tizim Ishtirokchilariga ular tomonidan tuzilgan shartnomaviy kelishuvlarga muvofiq, o'zlarining elektron hamyonlari va Elektron pullarini boshqarishlarini ta'minlash uchun talab qilinadigan zaruriyatdan kelib chiqib, axborot va ma'lumotlarga kirishini taqdim etadi;
- tizimning vazifasi va jarayonlarini boshqarish maqsadida Tizim ichida o'tkaziladigan amaliyotlar to'g'risidagi axborotni yig'ish, saqlash va ishlov berish, shuningdek, Tizim Ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlarini fosh etmagan holda nashrlar uchun statistik va tahliliy hujjatlarni tayyorlashni amalga oshiradi;
- Emitentning so'roviga ko'ra, Tizim Ishtirokchilari tomonidan Elektron pullar bilan amalga oshirilgan amaliyotlarga oid ma'lumotlar va zarur hujjatlarni kelishilgan muddatda taqdim etadi;
- Emitentga Emitentning shaxsiy kabinetidagi Elektron pullar egasi tomonidan amalga oshirilgan amaliyotlar va tranzaksiyalar to'g'risidagi ma'lumotlardan doimiy onlayn rejimda foydalanish imkoniyatini taqdim etadi;
- Tizim Ishtirokchilarining shubhali amaliyotlari to'g'risida, shu jumladan ularni amalga oshirishga urinishlar to'g'risida ular aniqlangan kundan keyingi bir ish kundan kechiktirmay belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining maxsus vakolatli davlat organiga xabarlar yuboradi;
- «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablari qo'llaniladigan amaliyotlar to'g'risida ma'lumotlarni jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashishga vakolatli organga taqdim etadi;
- Tizimga ruxsatsiz kirish holatlari aniqlangan taqdirda, Tizim Ishtirokchilarining hisobvaraqlari orqali Elektron pullarni ko'chirish jarayoniga uchinchi shaxslarning aralashuvi tahdidi bartaraf etilgunga qadar Tizimdagi amaliyotlarni to'xtatib turadi;
- tizimda amalga oshiriladigan turli xil xizmatlarning axborot-texnikaviy ta'minlanganligi uchun Tizim ishtirokchilaridan Operator tomonidan belgilangan Tariflarga muvofiq komission mukofot oladi;
- tizim Ishtirokchilarini rejali texnik ishlar munosabati bilan Tizimda ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qiladi;
- Agentlar reestrini yuritadi va Agent tomonidan Operator bilan tuzilgan Shartnoma shartlariga, O'zbekiston qonunchiligi talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

- jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadlarni legallashtirilishiga, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollari tarqatilishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi Qonunda belgilangan talablarning bajarilishini ta'minlaydi;
- tizimga kiritiladigan barcha texnologik o'zgarishlarni mazkur Qoidalarga kiritgan holda (agar mazkur texnologik jarayonlar ushbu Qoidalar bilan tartibga solingan bo'lsa) va Tizimning internet resursiga joylashtirishni Emitent bilan kelishadi. Tizim Qoidalari, unga o'zgartirishlar va to'ldirishlar Tizim Operatori va Ishtirokchilari tomonidan ular Operatorning rasmiy veb saytida chop etilganidan so'ng 15 (o'n besh) kalendar kunida qo'llaniladi;
- elektron hamyonning holati (qoldig'i), Elektron pul egasining elektron hamyonga nisbatan harakatlari, o'tkazilgan to'lovlar tarixi, shuningdek Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni amaliyot bajarilganidan keyin kamida 5 (besh) yil muddat davomida saqlash. Tizimdan olingan ushbu ma'lumotlar Operator tomonidan O'zbekistonning amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin.
- Tizimning ishlashi bo'yicha da'vo ishlarini (kerak bo'lsa) amalga oshiradi va Ishtirokchilar bilan nizolarni sudgacha ko'rib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi;
- boshqa xizmat majburiyatlarini amalga oshiradi.

#### 5. 8. Operator quyidagi huquqlarga ega:

- Dasturiy ta'minotni modifikatsiya qilish va Tizim Ishtirokchilariga eskirgan dasturiy ta'minot versiyalaridan foydalangan holda Tizimga kirishni taqiqlash;
- Tizimning ishlashini ta'minlashga safarbar etilgan dasturiy va/yoki apparat vositalarining ishlashida nosozliklar, xatoliklar va uzilishlar aniqlangan taqdirda, shuningdek, profilaktika maqsadlarida va Tizimga ruxsatsiz kirishning oldini olish maqsadida o'z dasturiy va texnik vositalarining ishlashini to'xtatib turish;
- tizimning mazkur Qoidalariga o'zgartirish kiritishga;
- ishtirok etish mezonlariga javob bermasa yangi Ishtirokchini Tizimga qo'shishdan bosh tortish;
- Tizim ichida amalga oshiriladigan amaliyotlar haqidagi ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash;
- Foydalanilayotgan tashuvchi va materiallarning joylashtirilishi joyidan qat'iy nazar Emitent to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zining reklama-axborot materiallarida joylashtirish, shu jumladan Operator xizmatlarini targ'ib qilish bilan bog'liq Emitentning tovar belgilari va/yoki xizmat ko'rsatish belgilaridan foydalanish.
- agentlar, jismoniy shaxslar – hamyondan foydalanuvchilar, Merchantlar, uchinchi shaxslarni elektron pullar tizimini ishlatishni amalga oshirishga jalb qilgan holda ular bilan shartnoma tuzish.
- tizim Ishtirokchilaridan Operatorning uning saytida Operator tomonidan Tizim Ishtirokchilariga nisbatan ko'rsatilgan xizmatlari uchun joylashtirilgan tariflariga muvofiq tuzilgan shartnomalarning shartlariga ko'ra komission mukofot, jumladan, Elektron pullarning Egalari hisoblangan Tizim Ishtirokchilaridan mukofot olish;
- Mijozning Maqomidan qat'iy nazar, ushbu Qoidalarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida bevosita nazarda tutilgan hollarda, shuningdek, Operator Mijoz harakatlarining qonuniyligi va Tizimdan lozim darajada foydalanish, Mijozning harakatlari Operator, boshqa Ishtirokchilar yoki uchinchi shaxslarning manfaatlariga dahldor bo'lgan boshqa hollarda shubha tug'ilgan hollarda, bunday ishonch hosil qilishni talab qiluvchi qo'shimcha xizmatlarni Mijozga taqdim etish uchun identifikatsiya qilish hujjatlarni so'rash;
- Mijozning elektron hamyonidagi Elektron pul qoldig'idan ortiq miqdorda amaliyotni amalga oshirishga urinish, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va Operator belgilangan

chegaradan ortiq miqdorda bir martalik operatsiyani Tizimda amalga oshirishga urinish, Operator oldindan ushbu Mijozni avtorizatsiyalashi, identifikatsiyalashi zarurati tug'ilganda, Operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra xizmatlar bilan aloqani saqlab turishning imkoni yo'qligida, Mijoz autentifikatsiya taomilidan salbiy natija bilan o'tganda, amaliyotning amalga oshirilishi Operatorga, boshqa Ishtirokchilarga yoki uchinchi shaxslarga zarar keltirishi mumkin bo'lgan boshqa hollarda Mijoz bilan amaliyotlarni amalga oshirishni rad etish;

- Ishtirokchilar tomonidan Qoidalar, tegishli kelishuvlar shartlari buzilishi mumkin bo'lgan holatlar aniqlangan taqdirda ularga nisbatan (Tizimda ishtirok etishni to'xtatishgacha bo'lgan) ta'sir choralari ko'rish;
- Merchantning tizimi bilan aloqa o'rnatishning imkoni bo'lmagan, Merchant o'z majburiyatlarini muntazam ravishda bajarmaganligi to'g'risidagi shikoyatlar mavjud bo'lgan, pullarni so'ndirishga yo'naltirishdan boshqa hollarda Elektron pullar bilan amaliyotlarni bajarishga urinish, Merchantning shaxsiy kabinetiga ruxsatsiz kirishda gumon qilish, Merchantning Elektron pullari qoldig'idan ortiq bo'lgan Elektron pullar summasini so'ndirishga urinishlar, Operatorga, boshqa Ishtirokchilarga yoki uchinchi shaxslarga zarar keltirishi mumkin bo'lgan boshqa hollarda Mijoz Merchantga va/yoki Merchant manziliga Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirishni rad etishi;
- Agentning dasturiy va/yoki apparat vositalari bilan aloqa o'rnatishning imkoni bo'lmagan, Agent DT yordamida amalga oshiriladigan to'lov xizmati bilan aloqa o'rnatishning imkoni bo'lmagan, Agent dasturiy ta'minotidan foydalangan holda bir martalik amaliyotlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston qonunchiligida, Qoidalarda belgilangan chegaradan oshib ketadigan summada amaliyotni amalga oshirishga urinish, Agentning autentifikatsiya ma'lumotlaridan ruxsatsiz foydalanishda gumon mavjud bo'lgan, Agentning Elektron pullari qoldig'idan oshib ketadigan summaga Agentning DTdan foydalangan holda amaliyotni bajarishga urinish, Agentning Elektron pullari qoldig'idan ortiq bo'lgan Elektron pullar summasini so'ndirishga urinish; Operatorga, boshqa Ishtirokchilarga yoki uchinchi shaxslarga zarar keltirishi mumkin bo'lgan boshqa hollarda Agentga va/yoki Agent manziliga amaliyotni amalga oshirishni rad etish;
- solishtirishni amalga oshirish uchun Merchantlar, Agentlar, Emitentlardan Elektron pullardan foydalangan holda amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha hisobotni so'rash;
- amaliyotlar bajarilishi davomida Mijozlar tomonidan kiritiladigan shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash, ushbu ma'lumotlarni, bunday uzatish ular bilan tuzilgan shartnomani ijro etish uchun zarur bo'lgan hollarda, shuningdek Mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari bilan amalga oshiriladigan boshqa barcha amaliyotlarni bajarish uchun Merchantlarga uzatish;
- Operator Merchantning amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan va/yoki Qoidalarni va/yoki tuzilgan shartnoma shartlarini qo'pol ravishda buzadigan amaliyotlarni amalga oshirganligi faktini aniqlasa, Merchantni Tizimda bloklash;
- Operator Agent tomonidan amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan va/yoki Qoidalarni va/yoki tuzilgan shartnoma shartlarini qo'pol ravishda buzadigan harakatlarni amalga oshirayotganligini aniqlasa Agentni Tizimda bloklash;
- Emitent tomonidan Elektron pullar to'liq yoki o'z vaqtida so'ndirilmagan taqdirda, Ishtirokchilar nomidan va ularning manfaatlarini ko'zlab, Elektron pullarning bunday so'ndirilmasl原因 sabablari to'g'risida hisobot talab qilish;
- Qoidalarda belgilangan tartibda va shartlarda Ishtirokchilarni individuallashtirish vositalaridan foydalanish.
- tizim Ishtirokchisi tomonidan Elektron pullardan to'lov vositasida foydalanilishini to'xtatish va / yoki to'xtatib qo'yish:

- a) ishtirokchidan olingan xabarnoma, jumladan, elektron hamyonning yo'qolganligi o'g'irlanishi, yoki ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risidagi ma'lumot asosida;
  - b) ishtirokchi tomonidan Elektron pullarni ishlatish tartibi buzilganda.
  - c) qonunchilikda va tuzilgan Shartnomalarda nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.
- Elektron pul egasi elektron hamyonining bloklanishi elektron hamyon bloklanishiga qadar paydo bo'lgan uning majburiyatlari va Emitentning majburiyatlarini tugatmaydi. Elektron hamyon bloklangan hollarda Operator va Emitent Elektron pul egasining elektron hamyon bloklanishidan oldin vujudga kelgan majburiyatlarining to'liq bajarilishini ta'minlaydi.
  - elektron hamyonni blokrovka qilishga sabab bo'lgan holatlar to'liq bartaraf etilgandan so'ng elektron hamyon foydalanish uchun qayta tiklanadi (faol holatga o'tkaziladi).
5. 9. Tizim Operatori quyidagi majburiyatlarga ega:
- tizimning boshqa Ishtirokchilarining internet resurslarida chop qilgan materiallarining mazmuni, ishonchliligi va aniqligi uchun;
  - boshqa Ishtirokchilar tomonidan uchinchi shaxslarning mualliflik va boshqa huquqlari buzilishi uchun.
5. 10. To'lov tashkiloti hisoblangan Operator Agentlar orqali ular bilan tuzilgan shartnoma asosida pulli xizmatlarni ko'rsatish huquqiga ega.
5. 11. Operator Mijozlarga shaxsiy elektron hamyonidan Elektron pullarni sotish huquqini olish, shuningdek, Tizim Mijozidan Elektron pullarni sotib olish huquqini qo'lga kiritib, Tizim Agenti sifatida ishtirok etishga haqli hisoblanadi.
5. 12. Operator Tizim Agenti sifatida chiqib, quyidagi to'lov xizmatlarini ko'rsatadi:
- elektron pullarni sotish (tarqatish) xizmatlari;
  - elektron pullarni sotib olish xizmatlari;
5. 13. Agent Tizimdagi faoliyati doirasida quyidagi amaliyot turlarini amalga oshiradi va amaldagi qonunchilik va Operator tomonidan o'rnatilgan cheklov va limitlarni hisobga olgan holda xizmat majburiyatlarini bajaradi:
- Tizimda ro'yxatdan o'tish va Tizim Agenti sifatida faoliyatni amalga oshirishda Operatorni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Operator Agentning o'zi noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etishi natijasida Agentning ko'rgan zarari uchun javobgar emas;
  - Operatorga Agent DTga kirish nuqtalarining to'liq ro'yxatini, ularning joylashuvi va ish vaqtini ko'rsatib taqdim etadi. Mijozlarning Agent DTga kirish apparat vositalari uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.
  - O'zbekiston qonunchiligiga muvofiq Elektron pullarni olish va sotishni amalga oshiradi. Mijozga Elektron pullarni sotadi (tarqatadi) va undan sotib oladi;
  - elektron pullar sotilgan taqdirda Elektron pullarning egasini Elektron pullar bilan amaliyotlarni bajarish tartibi va Elektron pullarni ishlatishda yuzaga keladigan tavakkallar, e'tirozlarni berish usullari, ularni ko'rib chiqish tartibi, shuningdek, Elektron pullardan foydalangan holda amaliyotlar o'tkazilganda olinadigan komission haq to'lash turlari va o'lchamlari to'g'risidagi axborot bilan tanishtiradi;
  - Elektron pullar bilan har qanday amaliyotlarni amalga oshirishda u jismoniy shaxslarga Tizim doirasida ko'rsatiladigan xizmatlarni taqdim etish shartlari bilan istalgan mavjud usulda tanishish imkoniyatini taqdim etadi.
  - hamyondagi Elektron pul qoldig'ini kuzatib boradi, Agentga tegishli Hamyonni o'z vaqtida to'ldiradi va elektron hamyonni to'ldirishda sezilarli kechikishlarga yo'l qo'ymaydi;
  - Agent Elektron pullarni identifikatsiya qilingan va identifikatsiya qilinmagan Tizim Mijozlari –



Elektron pullar egalariga sotishda hamda identifikatsiya qilingan Tizim Mijozlari – Elektron pullar egalaridan sotib olishda O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida va ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan cheklovlar buzilishiga yo‘l qo‘ymaydi;

- Mijozga Elektron pul sotilganligi va Elektron pullarni ro‘yxatdan o‘tgan Mijozning elektron hamyoniga kiritilganligi va/yoki Merchant foydasiga to‘lov amalga oshirilganligi faktini tasdiqlovchi savdo kvitansiyasini beradi.
- Mijozning elektron hamyonini to‘ldirish jarayonida unga sotilgan Elektron pullar Emitenti to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni mijozga taqdim etadi;
- emitentga Elektron pullarni to‘lashga taqdim etadi;
- tizim ishtirokchilaridan Tizimda Elektron pullarni sotish (tarqatish) va sotib olish bilan bog‘liq bajarilgan amaliyotlarning alohida turlari uchun komission haq (mukofot) oladi.
- Operator, Emitentning so‘roviga binoan, identifikatsiya qilingan Mijozlar - jismoniy shaxslar bilan Elektron pullar bo‘yicha Agent tomonidan amalga oshirilgan bitimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etadi. Agent Elektron pul bilan amaliyotlarni amalga oshirishda/o‘tkazishda ishtirok etuvchi Tizim Mijozlari – jismoniy shaxslarga nisbatan so‘ralgan ma‘lumotlarning o‘z vaqtida taqdim etilmagani uchun javobgar bo‘ladi, bu esa Emitent, Operator vakolatli davlat organlari oldidagi o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir qilishi mumkin;
- o‘z majburiyatlarini bajarish jarayonida o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan mahfiy ma‘lumotlarni oshkor etmaslik;
- o‘zining autentifikatsiya ma‘lumotlarining xavfsizligini mustaqil ravishda ta‘minlaydi va Agent nomidan Tizimda faoliyat yuritish vakolatiga ega bo‘lmagan shaxslarning bunday ma‘lumotlardan foydalangan holda shaxsiy kabinetga kirishini cheklaydi;
- soliq organlariga mustaqil ravishda hisobot beradi, Mijozlardan qabul qilingan naqd pul mablag‘larini inkassatsiya qilishni tashkil qiladi.

#### 5.14. Agent quyidagi huquqlarga ega:

- Emitent tomonidan Elektron pullarni chiqarish tashabbusi bilan chiqish;
- Tizim Mijozlariga elektron pullarni sotish;
- Bir nechta Tizim Emitentlarida bank hisob raqamlariga ega bo‘lish, turli Tizim Emitentlaridan Elektron pullarni sotib olish va sotish;
- Sotiladigan elektron pul uchun to‘lov sifatida pullarni naqd va naqdsiz holda qabul qilish;
- quyidagi hollarda Tizim Ishtirokchisi - jismoniy shaxsga elektron pullarni sotib olishda bir tomonlama rad etadi:
  - a) tizim Ishtirokchisi - jismoniy shaxsning mazkur Qoidalarning talablariga rioya qilmaganda;
  - b) to‘lov rekvizitlarini to‘ldirishda belgilangan qonunchilik talablari buzilganda;
  - c) elektron pullarni sotib olishga pul miqdori yetarli bo‘lmaganda yoki Tizim Ishtirokchisi – jismoniy shaxs ularni sotib olishi uchun mavjud bo‘lgan elektron pul miqdoridan ortiq bo‘lganda (elektron pullarning identifikatsiyalangan va identifikatsiyalanmagan egalari uchun Qoidalarda belgilangan cheklovlarga muvofiq);
- tizim Ishtirokchilari - jismoniy shaxslardan Operatorning tariflariga muvofiq Agent tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar uchun (EPni sotish, EPni xarid qilish) komission mukofot olish;
- naqd pullarni qabul qilish, naqd pullarni qabul qilish puntlari va boshqa usullari bo‘yicha amaliyotlarni bajarishga imkon beruvchi elektron terminallar orqali elektron pullarni sotishni va sotib olishni amalga oshirish.
- Jismoniy shaxslardan elektron pullarni sotib olishga;

- Operatoridan 5 (besh) yilgacha bo'lgan muddatda amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha hisobotni so'rash;
  - Operatoridan dasturiy ta'minotning ishlashi bo'yicha maslahat xizmatlarini olish;
- 5.15. Tizimda faoliyat olib borish doirasida Mijoz quyidagi amaliyotlarni amalga oshiradi:
- tizimda Elektron pullar bilan bog'liq amaliyotlarni sodir etishga ruxsat berilishini taqdim etadigan Tizim Qoidalari, Emitent va Operatorning talablarini bajaradi;
  - mustaqil ravishda Tizimga shaxsan ulanishni ta'minlaydi;
  - operatorga, Agentga Elektron pullarni sotib oladi va sotadi (Elektron pullarni sotish imkoni faqat identifikatsiya qilingan Mijozlar uchun mavjud);
  - to'lovlarni Elektron pullar orqali tovar yoki Merchant tomonidan ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarga to'lov sifatida amalga oshiradi;
  - o'zining elektron hamyonidagi Elektron pullarni boshqa Elektron pullarning identifikatsiyalangan egasining elektron hamyoniga o'tkazilishini amalga oshiradi;
  - tizimda Elektron pullar bilan amaliyotlarni bajarish uchun komission mukofot to'lovini (mavjudligida) olib boradi;
  - shaxsiy mualliflik o'lchamlari to'g'risidagi axborotni (foydalanuvchining ismi, paroli) boshqa shaxslarga fosh etmaydi/bermaydi. Bunda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha xarajatlar va zararlar uchun Mijoz mustaqil o'zi javobgar hisoblanadi va Operator/Emitentdan ularning qoplanishini talab etish huquqiga ega emas;
  - elektron hamyonlarga ruxsatsiz kirish aniqlanganda yoki ularga kirishga shubha uyg'ongan taqdirda Tizim orqali Elektron pullar bilan amaliyotlarni bajarishni blokirovkalash maqsadida zudlik bilan Operator/Emitentni bevosita Tizim orqali xabardor qilish;
  - ruxsatsiz kirish aniqlangan taqdirda o'zining elektron hamyonlarining holatini nazorat qiladi, har bir ish vaqtidan so'ng Tizim bilan ishlash uchun ochiq bo'lgan Internet tarmog'ining barcha ulanish sessiyalarining yopilishini ta'minlaydi;
  - elektron pullardan foydalangan holda to'lovni amalga oshirish zarur bo'lgan hollarda Operatorning amaldagi tariflariga muvofiq to'lovni va komission mukofotni olib borish uchun etarli Elektron pullar bilan ta'minlaydi;
  - elektron pullardan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq to'lovlar yoki o'tkazmalar sifatida foydalanmaydi;
  - Tizimda identifikatsiyadan o'tishda Operator talablariga qat'iy rioya qilish;
  - savollar tug'ilganda, Operatorning internet-manbasida joylashtirilgan aloqa telefonlari va elektron manzillari orqali qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish;
  - Tizimda O'zbekistonning amaldagi qo'nunchiligiga zid bulmagan majud amaliyotlarning boshqa turlarini amalga oshiradi;
- 5.16. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
- Qoidalarda ruxsat etilgan har qanday mavjud usullar bilan Elektron pullar sotib olish, Elektron pullarni elektron hamyonga kiritish, fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Qoidalarga va Operator bilan tuzilgan Shartnomaga zid bo'lmagan boshqa usullar bilan boshqa Mijoz yoki boshqa jismoniy shaxsga da'vo qilish huquqini yon berish.
  - Tizimning barcha xizmatlaridan o'zining maqomiga va Operator tomonidan o'rnatilgan boshqa cheklolarga muvofiq foydalanish huquqiga ega bo'lish.
  - mazkur Tizim Qoidalari va Oferta shartlarida nazarda tutilgan shartlarda Tizim orqali Elektron pullar bilan amaliyotlarni bajarish;

- elektron pullarni undan sotib olishi uchun Operatorga, Agentga beradi;
  - operator, Emitent va Agentdan Tizim Qoidalari va Oferta shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini tegishli bajarishlarini talab qilish;
  - Mijozga tegishli elektron hamyonning holati, elektron hamyonga nisbatan Mijozning harakatlari, elektron hamyondagi o'zgarishlar tarixi va Tizimdan foydalanishda ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni olish;
  - texnik va axborot yordamini olish;
  - Operatorga Tizim ishtirokchilarining harakatlari va Operatorning aralashuvini talab qiladigan boshqa holatlar yuzasidan shikoyatlar yuborish;
  - Tizimdan Tizimning boshqa ishtirokchilari, uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmaydigan va ularga dahl qilmaydigan, shuningdek qonun hujjatlari me'yorlarini buzmaydigan boshqa usulda foydalanish;
  - tizim Qoidalari va Oferta shartlariga muvofiq Tizimdagi elektron hamyonlarni yopgan holda Tizim xizmatidan bosh tortish.
- 5.17. Tizimdagi faoliyati doirasida Merchant quyidagi amaliyotlarni amalga oshiradi va amaldagi qonunchilik va Operator tomonidan belgilangan cheklovlar va imtiyozlarni hisobga olgan holda xizmat majburiyatlarini bajaradi:
- Tizimdan boshqa Ishtirokchilarning, uchinchi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzmaydigan va ularga dahl qilmaydigan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalarini buzmaydigan tarzda foydalanadi;
  - Mijozdan to'lovlarni Elektron pullar bilan tovarning qiymati yoki fuqarolik-huquqiy bitimlar bo'yicha ko'rsatilgan ishlar va xizmatlarga to'lov sifatida qabul qiladi;
  - Emitentga Elektron pullarni u to'lashi uchun taqdim etadi;
  - Emitentlar tomonidan Merchantga tegishli Elektron pullar qoldig'ini (uning bir qismini) to'langanidan keyingi pullar o'tkazilishi mumkin bo'lgan kamida bitta bank hisob raqamiga egadir;
  - tovarlar, ishlar, xizmatlarni amalga oshirish to'xtatib qo'yilgan yoki to'xtagan kundan kechikmagan holda Tizim Operatori va Emitentni xabardor qiladi;
  - pulni naqd pulsiz to'lash tartibida bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan berish uchun Emitentga, Operatorga komission mukofot to'laydi;
  - o'zining reklama-axborot materiallarida Tizimning tovarlar/ishlar/xizmatlarga to'lov qilish usullariga tegishli ishonchli axborotni joylashtiradi va qo'llab-quvvatlaydi;
  - Tizimdan foydalanish maqsadida Operator, Emitent tomonidan unga berilgan maxfiy ma'lumotlarni uzatmaydi, shu jumladan uchinchi shaxslarga o'z Hamyonidan foydalanish imkoniyatini bermaydi, o'zining autentifikatsiya ma'lumotlarini oshkor qilmaydi;
  - o'zining autentifikatsiya ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlaydi va Merchant nomidan Tizimda faoliyat yuritish vakolatiga ega bo'lmagan shaxslarning bunday ma'lumotlardan foydalangan holda Hamyonga kirishini cheklaydi, shuningdek, Merchant nomidan Tizimga kirish huquqiga ega bo'lgan shaxsning ma'lumotlari o'zgartirishda o'zining autentifikatsiya ma'lumotlariga o'z vaqtida o'zgartirishlar kiritadi va Operatorni bunday shaxsning ma'lumotlari o'zgarishi haqida o'z vaqtida xabardor qilish;
  - Tizimga kirish qurilmasining ishlashi va axborot xavfsizligi to'g'risida lozim darajada g'amxo'rlik qilish;
  - Tizimda ro'yxatdan o'tish va Merchant sifatida faoliyatni amalga oshirishda Operatorni ishonchli ma'lumotlar bilan ta'minlaydi. Operator Merchant tomonidan ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilishi natijasida Merchantning ko'rgan zarari uchun javobgar emas;

- Elektron pullardan foydalangan holda tuzilgan fuqarolik-huquqiy bitimlarga muvofiq Mijoz oldidagi o'z majburiyatlarini belgilangan tartibda bajaradi;
  - Mijozga Elektron pul yordamida amalga oshirilgan to'lovni tasdiqlovchi savdo chekini beradi;
  - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, tegishli shartnoma shartlari va Qoidalarga muvofiq Mijozga pul mablag'larini qaytarishni amalga oshiradi;
  - bajarilgan amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni va amaliyotlar amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni ular amalga oshirilganidan keyin kamida 5 (besh) yil davomida saqlaydi;
  - mazkur Qoidalar va Merchant va Operator o'rtasida imzolangan shartnomaning shartlariga muvofiq Merchantga yuklatilgan boshqa majburiyatlarni bajaradi.
- 5.18. Merchant quyidagi huquqlarga ega:
- mazkur Qoidalar va Merchant va Operator o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq Tizim ishtirokchisiga aylanish;
  - Mijozlardan fuqarolik-huquqiy amaliyotlar uchun to'lov sifatida Elektron pullarni qabul qilish.
  - uning ixtiyorida bo'lgan Elektron pullarni Merchant va Operator o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan shartlarga muvofiq Emitent tomonidan yopilishiga taqdim etish.
  - o'z ma'lumotlariga, shuningdek, sotiladigan tovarlar, ishlar, xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish;
  - Mijoz bilan tuzilgan bitim bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkonli bo'lmagan hollarda Mijozdan to'lovni qabul qilishni rad etish;
  - Operatoridan 5 (besh) yilgacha bo'lgan muddatda amalga oshirilgan amaliyotlar bo'yicha hisobotni so'rash;
- 5.19. Merchant Elektron pullarni chiqargan Emitentlardan qat'iy nazar ularni qabul qilishi va Elektron puldan foydalangan holda tuzilgan fuqarolik-huquqiy bitimlarga muvofiq Mijoz oldidagi o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishga majbur.

## 6. «A-PAY» ELEKTRON PULLAR TIZIMIGA QO'SHILISH TARTIBI

- 6.1. Tizim Ishtirokchilarining Tizimga qo'shilishi va ular tomonidan elektron pullarni ishlatish Tizimning mazkur Qoidalari va tuzilgan shartnomalar, jumladan, Oferta shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.
- 6.2. Jismoniy shaxslarning Tizimga ulanish tartibi:
- 6.2.1. Tizimda ro'yxatdan o'tgan «A-Pay» Elektron pullaridan Tizimda foydalanish to'g'risidagi Shartnomani tuzish huquqiga ega va uni tuzishga layoqatli har qanday jismoniy shaxs Tizim Ishtirokchisiga aylanishi mumkin.
- 6.2.2. Tizimga qo'shilish va Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirish uchun jismoniy shaxsni ushbu Qoidalar, Tariflar va Tizimning internet-manbasida va/yoki mobil ilovasida joylashtirilgan Oferta shartlari bilan tanishtirish va uning roziligini olish zarur.
- 6.2.3. Jismoniy shaxsning Operator bilan Ofertani tan olishi, uning Tizimga qo'shilishi va uning ushbu Qoidalar shartlarini, Tariflarni tan olishi, jismoniy shaxs Qoidalar, Oferta, Tariflar bilan kelishilganligi to'g'risida belgi qo'yish orqali Tizimda ro'yxatdan o'tganda, ro'yxatdan o'tish shaklining tegishli maydonida Operator internet-manbasida ro'yxatdan o'tish shakllarini

to'ldirishda avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Oferta shartlariga rozi bo'lish jismoniy shaxs tomonidan Qoidalar, Shartnomalar, Tariflar shartlari bilan tanishganligi, ularni cheklavlarsiz to'liq va so'zsiz ongli qabul qilishini anglatadi va yozma ravishda shartnoma tuzishga teng. Ommaviy shartnomaning barcha shartlari qabul qilingan paytdan boshlab, Mijoz Qoidalarda nazarda tutilgan barcha huquqlarga ega bo'ladi va majburiyatlarni zimmasiga oladi. Ommaviy shartnomani imzolash orqali Mijoz Tizim Operatori va Elektron pullar Emitentiga shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va uzatishga rozilik beradi.

6. 2. 4. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng Mijozga Tizimdagi Elektron pullar egasining «shaxsiy kabineti» funksiyalariga ega elektron hamyonga kirish uchun mijoz tomonidan yaratilgan login (telefon raqami) va parolga ega bo'lgan elektron hamyon ochiladi. Tizim operatori ro'yxatdan o'tish uchun qo'shimcha parametrlarni o'rnatishi mumkin, ular Tizim saytida joylashtiriladigan tegishli yo'riqnomada ko'rsatilgan. Operator va Tizim xizmatlaridan foydalanish jarayonida elektron hamyonni ro'yxatdan o'tkazgandan so'ng ham Operator tomonidan Mijozdan qo'shimcha ma'lumot talab qilinishi mumkin. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs Tizimda elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi maqomini olib, unga Tizim tomonidan taklif etilayotgan ayrim amaliyotlar imkonli bo'ladi.
6. 2. 5. Elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi Operatorga Elektron pullarning identifikatsiya qilingan egasi maqomini olish uchun ushbu shaxs bilan Tizim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzish faktini aniqlash yoki tasdiqlash imkonini beruvchi ma'lumot va tegishli hujjatlarni taqdim etish orqali maxsus identifikatsiyalash taomilidan o'tishi mumkin. Tizimda foydalaniladigan identifikatsiyalash usullari to'g'risidagi ma'lumotlar Operator tomonidan Tizim saytida joylashtiriladi.
6. 2. 6. Ro'yxatdan o'tish taomili tugaganligi va elektron hamyon ochilganligi Operator tomonidan Tizim ishtirokchisiga ro'yxatdan o'tish vaqtida ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga tegishli xabar yuborish yoki elektron xabarnoma orqali tasdiqlanadi.
6. 2. 7. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng Tizimda, mobil ilovada mavjud usullardan foydalangan holda Elektron pullarni xarid qilish mumkin. Mijozni Tizimda ro'yxatdan o'tkazgandan va Elektron pullarni sotib olgandan so'ng, Mijoz elektron hamyon turi va maqomiga muvofiq to'lovlarni amalga oshirish uchun elektron hamyondan foydalanish huquqiga ega.
6. 3. Agentlarning Tizimga ulanish tartibi:
  6. 3. 1. Tizimda ro'yxatdan o'tish taomilidan o'tgan yuridik shaxs Tizimning agentiga aylanishi mumkin. Tizimda ro'yxatdan o'tish ro'yxatdan o'tish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilgan holda bevosita Operatorning internet-manbasida amalga oshiriladi.
  6. 3. 2. Tizimga Agent sifatida qo'shilish va Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirish uchun yuridik shaxs Tizim Qoidalari, Ommaviy Oferta va Tariflar bilan tanishishi kerak. Qoidalar, Ommaviy Oferta shartlari, Tariflar Tizimning internet-manbasida va/yoki mobil ilovada joylashtirilgan. Qoidalar, Ommaviy Oferta va Tariflar bilan tanishib chiqqach, barcha shartlarga to'liq va so'zsiz rozi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxs Qoidalarga, Ommaviy Ofertaga, Tariflarga o'z roziligini bildiradi va Operatorga yuridik shaxs tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi: yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi, Agent nomidan shartnoma tuzish va boshqa harakatlarni amalga oshirish vakolati ega bo'lgan shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi (rahbarni tayinlash to'g'risidagi buyruq yoki hujjatlarni imzolashga vakolatli shaxsga ishonchnoma), shaxsiy guvohnoma nusxasi, litsenziyalanadigan faoliyatni amalga oshiradigan taqdirda litsenziya nusxasi, Operator tomonidan belgilanadigan boshqa hujjatlar.

6. 3. 3. Operator yuridik shaxs to'g'risida hamma uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlarni to'playdi, Agent bilan ishchi aloqalarini o'rnatish uchun identifikatsiya qilish taomilini amalga oshiradi. Identifikatsiya qilishning natijasi ijobiy bo'lgan taqdirda Operator yuridik shaxsni Tizimda Agent sifatida ro'yxatdan o'tkazadi, Agent uchun elektron hamyonni ro'yxatdan o'tkazadi va Agentga Qoidalarda nazarda tutilgan huquq va imkoniyatlarni taqdim etgan holda ochiq va ro'yxatdan o'tgan elektron hamyonni boshqarish uchun zarur ma'lumotlarni beradi.
6. 3. 4. Zarur hollarda Operator va Agent axborot tizimlarini, texnik vositalarni integratsiyalash bo'yicha zarur choralarni ko'radi va shartnoma majburiyatlarini bajarishga kirishadi. Ommaviy shartnomani imzolash orqali Agent Tizim Operatori va Elektron pullar Emitentiga shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va uzatishga rozilik beradi.
6. 3. 5. Operator Qoidalarda va/yoki amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha, shuningdek Operator xizmatiga ko'ra boshqa asoslar bo'yicha yuridik shaxsga Shartnoma tuzish va Tizimga Agent sifatida qo'shilishni rad etishga haqli.
6. 4. Merchantlarning Tizimga ulanish tartibi:
  6. 4. 1. Tizimda ro'yxatdan o'tish taomilidan o'tgan yuridik shaxs va/yoki yakka tartibdagi tadbirkor Tizim Merchantiga aylanishi mumkin. Tizimda ro'yxatdan o'tish, ro'yxatdan o'tish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilgan holda bevosita Operatorning internet-manbasida amalga oshiriladi.
  6. 4. 2. Tizimga Merchant sifatida qo'shilish va Elektron pullar bilan amaliyotlarni amalga oshirish uchun yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor Tizim Qoidalari, Ommaviy Oferta bilan tanishishi va Tarif rejasini tanlashi kerak. Qoidalar, Ommaviy oferta shartlari, Tariflar Tizimning internet-manbasida va/yoki mobil ilovada joylashtirilgan. Qoidalar, Ommaviy oferta bilan tanishgandan so'ng va Tarif rejasini tanlagandan so'ng, barcha shartlarga to'liq va so'zsiz rozi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor Qoidalar, Ommaviy Oferta, tanlangan Tarif rejasini bo'yicha o'z roziligini bildiradi va Operatorga yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi. Yuridik shaxs quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi, Agent nomidan shartnoma tuzish va boshqa harakatlarni amalga oshirish vakolati ega bo'lgan shaxslarning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi (rahbari tayinlash to'g'risidagi buyruq yoki hujjatlarni imzolashga vakolatli shaxsga ishonchnoma), shaxsiy guvohnoma nusxasi, litsenziyalanadigan faoliyatni amalga oshiradigan taqdirda litsenziya nusxasi, Operator tomonidan belgilanadigan boshqa hujjatlar. Yakka tartibdagi tadbirkor quyidagi hujjatlarni taqdim etadi: yakka tartibdagi tadbirkorning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi, jismoniy shaxsning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjatning nusxasi, Operator tomonidan belgilanadigan boshqa hujjatlar.
  6. 4. 3. Operator yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor to'g'risida hamma uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlarni to'playdi, Merchant bilan ishchi aloqalarini o'rnatish uchun identifikatsiya qilish taomilini amalga oshiradi. Identifikatsiya qilishning natijasi ijobiy bo'lsa, Operator yuridik shaxsni, yakka tartibdagi tadbirkorni Tizimda Merchant sifatida ro'yxatdan o'tkazadi, Merchant uchun elektron hamyonni ro'yxatdan o'tkazadi va Merchantga Qoidalarda nazarda tutilgan huquq va imkoniyatlar hajmini taqdim etgan holda ochiq va ro'yxatdan o'tgan elektron hamyonni boshqarish uchun zarur ma'lumotlarni beradi.
  6. 4. 4. Zarur hollarda Operator va Merchant axborot tizimlarini, texnik vositalarni integratsiyalash bo'yicha zarur choralarni ko'radi va shartnoma majburiyatlarini bajarishga kirishadi. Ommaviy shartnomani imzolash orqali Merchant Tizim Operatori va Elektron pullar Emitentiga shaxsiy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash va uzatishga rozilik beradi.

6. 4. 5. Operator yuridik shaxsga, yakka tartibdagi tadbirkorni Qoidalarda va/yoki amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar, shuningdek boshqa asoslar bo'yicha Shartnoma tuzish va Tizimga Merchant sifatida qo'shishdan va Operatorning ixtiyoriga ko'ra boshqa asoslarda bosh tortishga haqli.

## 7. TIZIM MIJOZI - JISMONIY SHAXSNI IDENTIFIKATSIYALASH

- 7.1. Mijozni identifikatsiya qilish – O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda Mijozning shaxsini aniqlash taomili bo'lib hisoblanadi.
- 7.2. Mijoz - jismoniy shaxs o'z xohishiga ko'ra istalgan vaqtda Operatorga murojaat etib, identifikatsiyalash jarayonidan o'tishi mumkin. Agentlardan Elektron pullarni sotib olish va Tizim Mijoz - jismoniy shaxs tomonidan Elektron pullar bilan identifikatsiyalanmagan Elektron pul egasi uchun o'rnatilgan cheklovlarni oshiruvchi to'lovlar va o'tkazmalarni amalga oshirish imkoniyati uchun, shuningdek, Elektron pullarni to'lash yoki chiqarish uchun Tizim Mijoz - jismoniy shaxs majburiy tartibda identifikatsiyalashdan o'tishi shart.
- 7.3. Operator tomonidan Mijozni identifikatsiyalash uning Tizimda identifikatsiya qilinishini anglatadi, bu esa ushbu Mijozni Tizimning Identifikatsiyalangan Emitentlari sifatida tan olish uchun zarur va yetarli shartdir.
- 7.4. Identifikatsiyalash tartibini o'tkazish uchun Tizim Mijoz - jismoniy shaxs Operatorga hujjat egasining surati va hujjatdagi ma'lumotlar (seriya raqami, FISH, berilgan sanasi va boshqalar) aniq ko'rinib turgan pasportining yoki ID kartasining old tomoni skanirlangan/suratga olingan, hujjatning yorqin va yopiq joylarisiz, shaklini, shuningdek, identifikatsiyalanadigan jismoniy shaxsning yuzi yonida yoki uningsiz tushgan surati (selfi) (suratga tushish bo'yicha yo'riqnoma A-Pay ilovasida rasmlar va har bir harakatlarni ifodalagan holda ko'rsatilgan).
- 7.5. Tizim Mijoz - jismoniy shaxs pasporti yoki ID kartasida ko'rsatilgan shaxsiy (identifikatsiyalangan) ma'lumotlarga o'zgartirish kiritgan hollarda Elektron pullar bilan amalni bajarguniga qadar Operatorga yangi identifikatsiya ma'lumotlarini va qo'shimcha identifikatsiyadan o'tish maqsadida (Tizimdagi identifikatsiya ma'lumotlarini yangilish) shaxsini tasdiqlovchi hujjatning nusxasini taqdim etishi shart.
- 7.6. Tizimdan foydalanuvchining maqomini identifikatsiyalanmagandan identifikatsiyalangan elektron hamyon egasiga o'zgartirish Operator tomonidan amalga oshiriladi.
- 7.7. Identifikatsiya qilish taomili jarayonida to'plangan barcha ma'lumotlar qonunchilik, Qoidalar, Tizim Sayti yoki mobil ilova orqali taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlar egasining bevosita ko'rsatmalari talablariga muvofiq qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi.

## 8. EMITENTLARNI TIZIMGA ULASHDA MUNOSABATLAR TARTIBI

- 8.1. Emitentlarning Tizimga qo'shilishi Emitent va Operator o'rtasida tizim doirasida elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va so'ndirish bo'yicha o'zaro hamkorlik qilish Operator bilan shartnoma tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## 9. EMITENT TOMONIDAN ELEKTRON PULLARNING HISOBI

- 9.1. Emitent Elektron pullar Egasidan tushadigan pul mablag'larining alohida hisobini Elektron pullar bilan amaliyotlar bo'yicha pul mablag'larini hisobga olish uchun mo'ljallangan tegishli ixtisoslashtirilgan hisobvaraqa yuritadi.

## 10. OPERATORNING MERCHANTLAR BILAN O'ZARO ALOQASI

- 10.1. Operator va Merchant o'rtasida tuzilgan shartnoma va mazkur Qoidalar asosida Merchant va Operator o'rtasida o'zaro aloqa amalga oshiriladi.
- 10.2. Merchantlar tomonidan Elektron pullarga egalik qilish/ Elektron hamyonlarni to'ldirish taqiqlanadi. Merchantlar faqat sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, ishlar uchun o'zlarining ochiq elektron hamyonlariga Tizim Mijozlaridan - jismoniy shaxslardan Elektron pullarni qabul qiladilar.
- 10.3. O'z xohishiga ko'ra Operator to'lov amalga oshirgan yuridik shaxs hisoblangan Tizim Mijoziga tovar yetkazib berilishi yoki xizmat ko'rsatilishi to'g'risida Merchantdan tasdiqni talab qilish huquqiga ega.
- 10.4. Emitent Merchant va Operator o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq bankdagi hisob raqamiga naqdsiz to'lov orqali mablag' o'tkazish yo'li bilan Merchantlarning Elektron pullari qaytarilishini bajaradi.

## 11. ELEKTRON PULLARNI CHIQRARISH ЧИҚАРИШ

- 11.1. Elektron pullarni chiqarish (emissiya) Emitent tomonidan Tizim Agenti hisoblangan Operator dan pul olganidan so'ng amalga oshiriladi. Emitent shuningdek, Operator bilan Tizimda agentlik xizmatlarini ko'rsatish shartnomasi tuzilgan Agentlarga Elektron pullarni chiqarishni amalga oshiradi.
- 11.2. Agentning Emitentdan Elektron pullarni sotib olishi Emitentning ixtisoslashtirilgan hisobiga naqd bo'lmagan pul o'tkazmasi yo'li bilan amalga oshiriladi, shundan so'ng Emitent Operatorga Emitentning ixtisoslashtirilgan hisobi to'ldirilgan qiymat va Agentning rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etadi. Operator Emitentning chiqarilgan Elektron pullarini Agentning elektron hamyoniga avtomatik tarzda o'tkazilishini amalga oshiradi.
- 11.3. Emitent Elektron pullarning egalaridan uning ixtisoslashtirilgan hisobida ifoda etilgan qabul qilingan pullarning umumiy qiymati Tizimning Elektron pullariga mutanosibligini ta'minlaydi.
- 11.4. Tizim Ishtirokchisi - Agentning Elektron pullari Emitent tomonidan Tizim Ishtirokchisi - Agentning elektron hamyonidagi Elektron pullarning mumkin bo'lgan qiymati to'g'risidagi axborot ifoda etilgan paytdan boshlab chiqarilgan hisoblanadi.



## 12. JISMONIY SHAXSLARNING TIZIMDA ELEKTRON HAMYONLARNI RO'YXATDAN O'TKAZISHI VA OCHISHI. JISMONIY SHAXSLARNING TIZIMDA AMALIYOTLARNI O'TKAZISHINING CHEKLOVLARI

- 12.1. Jismoniy shaxsning Tizimda ro'yxatdan o'tishi bevosita Operatorning internet resursida yoki Operatorning mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish bo'yicha yo'riqnomalarga rioya etgan holda amalga oshiriladi. Mazkur tartib bo'yicha ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs Tizimda elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi maqomiga ega bo'ladi. Elektron pullarning identifikatsiyalangan egasi maqomini olish uchun jismoniy shaxs identifikatsiyalash tartibidan o'tishi lozim.
- 12.2. Jismoniy shaxs qayd etish bo'yicha tartiblarni bajarib bo'lganidan so'ng Tizim Ishtirokchiga – jismoniy shaxsga elektron hamyon ochadi va elektron hamyonga o'ziga xos identifikatsiya raqamini beradi. Tizim Ishtirokchisi – jismoniy shaxsning o'zining elektron hamyonini boshqarishi Tizimning veb-sayti yoki mobil ilovasi orqali olib boriladi.
- 12.3. Tizimning ro'yxatdan o'tgan Ishtirokchisi – jismoniy shaxsning identifikatsiyadan o'tganligi yoki o'tmaganligiga qarab Tizim unga quyidagi imkoniyatlarga ega bo'lishni taqdim etadi:
  - elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi (Tizim Ishtirokchisi – jismoniy shaxs identifikatsiya tartibidan o'tmadi);
  - elektron pullarning identifikatsiyalangan egasi (Tizim Ishtirokchisi – jismoniy shaxs identifikatsiya tartibidan o'tdi).
- 12.4. Tizimda uning Ishtirokchilari – jismoniy shaxslar uchun Elektron pullar bilan amaliyotlar qiymati bo'yicha (jumladan, Operator, Agentdan Elektron pullarni sotib olish) cheklovlar amal qilib, unga ko'ra quyidagi hollarda Elektron pullar bilan bir marotabalik amaliyotlar qiymati oshib ketmasligi kerak:
  - Elektron pullarning identifikatsiyalangan egasi – jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilgan bitta amaliyotning yuqori qiymati bazaviy hisob qiymatining yuz karrali miqdoriga teng qiymatdan oshmasligi lozim.
  - Elektron pullarning identifikatsiyalangan egasi – jismoniy shaxsning bitta elektron moslamasida saqlanayotgan Elektron pullarning yuqori qiymati bazaviy hisob qiymatining besh yuz karrali miqdoriga teng qiymatdan oshmasligi lozim
  - Elektron pullarning identifikatsiyalanmagan egasi – jismoniy shaxs tomonidan amalga oshirilgan bitta amaliyotning yuqori qiymati bazaviy hisob qiymatining besh yuz karrali miqdoriga teng qiymatdan oshmasligi lozim. Mazkur summa oshib ketgan taqdirda Elektron pullarning egasini identifikatsiyalashni amalga oshirish zarur.
  - Identifikatsiya qilinmagan Elektron pul egasi – jismoniy shaxsning elektron moslamasida saqlanayotgan Elektron pullarning maksimal qiymati asosiy hisoblangan qiymatdan besh baravar miqdoriga teng bo'lgan qiymatdan oshmasligi lozim.
- 12.5. Jismoniy shaxs Tizimda ro'yxatdan o'tganidan so'ng uning Elektron pullar bilan to'langan barcha to'lovlari va boshqa amaliyotlari Tizimda saqlanadi va Tizim Ishtirokchisi – jismoniy shaxs Tizimga kirganida tunu kun kirish huquqiga ega bo'ladi.

12. 6. Jismoniy shaxs bir yoki bir necha hamyonlarni ochish huquqiga ega, bunda jismoniy shaxs identifikatsiyalangan taqdirda elektron hamyonlarning egasi hamyonlarga identifikatsiyalangan maqomini berish maqsadida ulardan qay biri unga tegishli ekanligini ma'lum qilishi mumkin. Buning uchun u mazkur hamyonga kirish huquqiga egaligi to'g'risidagi guvohnomani taqdim etishi shart.

## 13. AGENTLAR VA MERCHANTLARNING ELEKTRON HAMYONLARINI RO'YXATDAN O'TKAZISH VA OCHISH

13. 1. Tizimda ro'yxatdan o'tish to'g'ridan-to'g'ri Operatorning internet-manbasida yoki Operatorning mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.
13. 2. Agentlarni Tizimda ro'yxatdan o'tkazish va ularga elektron hamyonlarni ochish Operator tomonidan Agentda Operator bilan o'zaro shartnoma mavjudligida va Operatorga talab qilingan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda amalga oshiriladi.
13. 3. Agentlarda elektron hamyonlar mavjud bo'lib, ularning amaliyotlari jismoniy shaxslardan va jismoniy shaxslarga Elektron pullarni sotib olish va sotish bilan cheklanadi. Bundan tashqari, Agentning shaxsiy kabineti Agentning hamyonidagi Elektron pullarning harakatini nazorat qilish imkonini beradi.
13. 4. Operator tomonidan Agentdan olinadigan komissiya to'lovining tartibi Agent va Operator o'rtasida tuzilgan shartnomaga tegishli Tariflar bo'yicha belgilanadi.
13. 5. Merchantlarni ro'yxatdan o'tkazish va ularga Tizimda elektron hamyonlarni ochish Operator tomonidan Merchantda Operator bilan o'zaro shartnoma mavjudligida va Operatorga talab qilingan hujjatlarni taqdim etgan taqdirda amalga oshiriladi.
13. 6. Operator tomonidan Merchantga maxsus elektron hamyon shakllantiriladi. Merchantning maxsus elektron hamyoniga faqat tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan tushgan Elektron pullar ularning nominal qiymatiga teng miqdordagi pul mablag'larini keyinchalik bank hisobvaraqlariga o'tkazish maqsadida qabul qilinadi.
13. 7. Merchantning maxsus elektron hamyonidagi Elektron pullarni Tizimda qayta sotishga yo'l qo'yilmaydi.
13. 8. Fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish paytida Tizimdan Elektron pul olgan Merchant Emitentdan qabul qilingan to'lov miqdoridagi pul da'vosini talab qilishga haqli.
13. 9. Emitent Merchant va Operator o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq, Merchantlarning Elektron pullarini naqd pulsiz to'lov yo'li bilan so'ndiradi.
13. 10. Operator tomonidan Merchantdan olinadigan komissiya to'lovining tartibi Merchant va Operator o'rtasida tuzilgan shartnomaga tegishli Tariflar bo'yicha belgilanadi.

## 14. TIZIM ISHTIROKCHILARI - JISMONIY SHAXSLARGA ELEKTRON PULLARNING TIZIM AGENTI SIFATIDA ISHTIROK ETUVCHI OPERATOR TOMONIDAN SOTILISHI

- 14.1. Tizim Mijozlari – jismoniy shaxslar tomonidan elektron pullarni Tizim Mijozi – jismoniy shaxsning ochiq elektron hamyoniga o‘tkazish uchun sotib olish Tizim Agenti sifatida faoliyat olib boruvchi Operator orqali amalga oshiriladi.
- 14.2. Tizim Agenti sifatida qatnashayotgan Operator Tizim Mijozlarining Elektron pullarini shaxsiy hamyonidan sotib oladi, shuningdek, Mijozning Elektron pullarini sotib olishni amalga oshiradi.
- 14.3. Elektron pullarni sotish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishida quyidagi harakatlar bajariladi:
  - Tizim Mijozi - jismoniy shaxsdan unga Elektron pullar sotish hisobiga pul olish;
  - Sotilgan Elektron pullarni o‘tkazish uchun Mijozdan elektron hamyonning identifikatsion raqamini olish;
  - Operator (Tizim Agenti) ning elektron hamyonidagi pullarni Mijozga sotilgan Elektron pullar hajmida hisobdan chiqarish;
  - Tizim Mijozining elektron hamyoniga tizim Operatori (Agenti) tomonidan sotilgan Elektron pullarni o‘tkazish.
  - Mijozning elektron hamyonidan ko‘rsatilgan xizmat uchun komission mukofotni (mavjudligida) o‘chirish;
  - Mijozga Elektron pullar o‘tkazilgan elektron hamyonni ko‘rsatgan yoki qayta tuzilgan elektron hamyonning identifikatsion ma‘lumotlarini ko‘rsatgan holda amaliyot bajarilganligini tasdiqlovchi kvitansiya (chek) ni berish.

## 15. ELEKTRON PULLARNI TIZIM ISHTIROKCHILARI-JISMONIY SHAXSLARGA AGENTLAR ORQALI SOTISH

- 15.1. Tizim Ishtirokchilari – jismoniy shaxslar tomonidan Tizimning Mijozi – jismoniy shaxsning ochiq elektron hamyoniga o‘tkazish uchun Elektron pullarning sotib olinishi Tizim Operatori bilan Agentlik shartnomasini tuzgan Agent orqali amalga oshiriladi.
- 15.2. Tizim Mijozi – jismoniy shaxs Agentga pul kiritgan yoki o‘tkazganda uning tomonidan sotib olingan Elektron pullarni o‘tkazish uchun Tizimda ochilgan elektron hamyonning identifikatsion kodini ko‘rsatadi.
- 15.3. Tizim Ishtirokchisi – jismoniy shaxsning elektron hamyoniga uchinchi shaxslar tomonidan Elektron pullarni o‘tkazish uchun pul kiritilgan taqdirda sotib olingan/bepul olingan Elektron pullarga nisbatan elektron hamyon egasining huquq va majburiyatlari paydo bo‘ladi. Uchinchi shaxslarning mazkur harakatlari Agent tomonidan uchinchi shaxsning elektron hamyon egasi manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirilgan deb baholanadi va uchinchi shaxslar va Agent o‘rtasida huquq hamda majburiyatlarni yuzaga keltirib chiqarmaydi.

15. 4. Tizim Mijozlari – uchinchi shaxsining Elektron pullarni sotishida Agent komission mukofot puli olish huquqiga ega bo'ladi.
15. 5. Tizim Mijozlari – jismoniy shaxs tomonidan Elektron pullar sotib olinganda unga kvitantsiya beriladi.

## 16. ELEKTRON PULLARNI BIR ELEKTRON HAMYONDAN BOSHQASIGA O'TKAZISH BO'YICHA AMALIYOTLARNI O'TKAZISH TARTIBI

16. 1. Tizim Mijozlari Elektron pullarni Tizimning boshqa Mijozlari Mijozning elektron hamyonidagi Elektron pul qoldig'i doirasida o'tkazmani amalga oshirishga haqli.
16. 2. Elektron pullarni boshqa elektron hamyonga (boshqa Mijozlari) o'tkazmasini amalga oshirishda Tizim Operatorlari Operator tomonidan so'ralayotgan o'tkazma uchun qayd etilgan shakldagi ma'lumotlarni taqdim etish bilan amaliyot olib borilganligi to'g'risida ko'rsatma jo'natishi lozim.
16. 3. O'tkazmaning eng kam va eng yuqori miqdori Tizim Operatorlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va mazkur Qoidalar doirasida cheklanadi.
16. 4. Agar Tizim Operatorlari o'tkazmaning haqqoniyligi shubha tug'ilgudek bo'lsa, shuningdek, vakolatli davlat idorasi tomonidan taqdim etilgan terrorizm va ekstremizmni moliyalashtirish bilan bog'liq ma'lumotlar mavjudligida Tizim Operatorlari oluvchi Mijozning Elektron pullarini to'xtatib qo'yishga haqli hisoblanadi.
16. 5. Elektron pullarni o'tkazish Tizim Operatorlari tomonidan jo'natuvchi Mijozdan so'rovnoman qabul qilib olgandan so'ng zudlik bilan amalga oshiriladi
16. 6. Tizim Operatorlari tomonidan Mijozdan Elektron pullarni o'tkazish bo'yicha ko'rsatma qabul qilinganidan so'ng amaliyot qaytarilmas va yakuniyga aylanadi.
16. 7. Tizim Operatorlari Mijozning Elektron pullar o'tkazilishini amalga oshirish to'g'risidagi topshirig'ini bajarganidan so'ng unga qayd etilgan topshirig'i bajarilganligi to'g'risida tasdiqnama jo'natadi.

## 17. TIZIMDA ELEKTRON PULLARNI CHIQRIB OLISH VA QAYTARISH

17. 1. Elektron pullarning Egalari – Mijoz, Merchant, Agent istalgan vaqtda Operator orqali elektron pullarning emissiyasini amalga oshiradigan Emitentdan Elektron pullarni qaytarishni talab qilishga haqli.
17. 2. Elektron pul egalari - jismoniy shaxslar Emitentdan Elektron pullarni qaytarishni amalga oshirmasliklari, balki Agentga ulardan Elektron pullarni sotib olishini taklif qilishlari mumkin (o'z xohishiga ko'ra).
17. 3. Elektron pullarning qaytarilishida mazkur pullarni qaytarishga taqdim etayotgan Elektron pullar Egasiga beriladigan pul miqdori qaytarishga taqdim etilgan pul qiymatiga mos bo'lishi lozim.
17. 4. Elektron pullar egasining bank hisob raqamiga o'tkazilishi lozim bo'lgan tegishli pul qiymati o'tkazilgan vaqtdan boshlab Elektron pullar Bank tomonidan qaytarilgan hisoblanadi.

- 17.5. Tizim Mijosi - jismoniy shaxs tomonidan Operator, Agentning Tizimning internet resursida joylashtirilgan tariflariga muvofiq Elektron pullarni qaytarishi/kiritishida Operator, Agent komission mukofot (pul) ni olib qolishi mumkin.
- 17.6. Merchantlarning sotilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, ishlar uchun olgan Elektron pullarini qaytarish Emitent tomonidan Merchantning bank hisob raqamiga naqdsiz pul o'tkazish yo'li bilan Tizim Operatoridan olgan axborotga asosan amalga oshiriladi.
- 17.7. Agentning Elektron pullarini qaytarish Emitent tomonidan Agentdan u va Operator o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan tartibda Elektron pullarning belgilangan qiymatini qaytarishning zarurligi to'g'risida olingan xabar asosida amalga oshiriladi. Agentning Elektron pullarini qaytarish Agentning bank hisob raqamiga naqdsiz to'lov bilan amalga oshiriladi.
- 17.8. Elektron pullar Emitent tomonidan tegishli pul qiymatini Elektron pul Egasiga unga o'tkazilishi lozim bo'lgan Elektron pul Egasining bank hisob raqamiga o'tkazmasi amalga oshirilgan vaqtdan boshlab qaytarilgan hisoblanadi.

## 18. ELEKTRON PULLARDAN FOYDALANGAN HOLDA TO'LOVLARNI VA BOSHQA AMALIYOTLARNI BAJARISH

- 18.1. Elektron pullardan foydalangan holdagi to'lovlar O'zbekiston Respublikasining respublikada Elektron pullardan foydalanish tartibini tartibga soluvchi qonunchiligi talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.
- 18.2. Elektron pullar bilan hisob-kitob qilish o'zida bank hisob raqamini ochmagan holda Elektron pullarni o'tkazishni amalga oshiradigan, naqd pulsiz hisobni ifoda etadi.
- 18.3. Tizimda Elektron pullarni o'tkazish Tizim Ishtirokchilari-jismoniy shaxslar/Agentlarning Tizimning boshqa Ishtirokchilari - Elektron pullarni oluvchilarning foydasiga nisbatan ko'rsatmalari asosida bajariladi.
- 18.4. Elektron pul egasining o'zining elektron hamyoniga kirishi Tizim sayti va/yoki Elektron pullarning egasining mobil ilovasiga Tizim Operatori tomonidan Elektron pul egalarini ro'yxatdan o'tishi uchun ularning identifikatsiyalovchi rekvizitlari va Tizimda saqlanayotgan ma'lumotlarning kiritilgan ma'lumotlar bilan solishtirib ko'rishni nazarda tutuvchi ro'yxatdan o'tiladigan tartiblardan o'tganidan so'ng ruxsat beriladi.
- 18.5. Elektron hamyonga muvaffaqiyat bilan kirganidan so'ng Elektron hamyon egasi quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:
  - o'zining elektron hamyonining holatini (balansini), to'lovlarni olib borish tarixini ko'rish;
  - to'lovlarni va Elektron pullarning o'zkazmalarini amalga oshirishi;
  - elektron pullar bilan boshqa mumkin bo'lgan amaliyotlarni bajarishi.
- 18.6. Operator tomonidan Elektron pul egalarining Elektron pullarni o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmasini ijro etish quyidagi shartlarga rioya qilgan taqdirda amalga oshiriladi:
  - elektron so'rovning autentifikatsiyasini o'tkazish;
  - tizimda elektron pullarni jo'natuvchi va oluvchi sifatida elektron so'rovda ko'rsatilgan elektron hamyonlarning mavjudligi;
  - elektron pullarning egalari - Elektron pullarni jo'natuvchi va qabul qilib oluvchilarning elektron hamyonlarining faoliyati to'xtatilgani yo'q;

- elektron so'rovda ko'rsatilgan Elektron pullar o'tkazmasining qiymati Mijozlarning elektron hamyonlardan/tegishli Mijozning elektron hamyoniga amaliyotlarni o'tkazish qiymatidagi maqomiga qarab belgilangan cheklovlardan oshmaydi;
  - elektron so'rovda ko'rsatilgan o'tkazma qiymati Tizim Operatori komissiyasini hisobga olgan holda Elektron pullarni jo'natuvchining elektron hamyonidagi qoldiqdan oshmaydi.
- 18.7. Elektron pullarni bir hamyondan boshqasiga o'tkazish amaliyoti Tizimda amaliyotlarni to'xtatish yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha ularni amalga oshirish imkoni bo'lmagan hollardan tashqari zudlik bilan bajariladi.
- 18.8. Elektron pullarning Egasi hisoblangan Tizim Mijoz – jismoniy shaxs o'zining elektron hamyonida qolgan qoldiq doirasidagi Elektron pullardan foydalangan va mazkur Qoidalarda, jumladan quyidagi amaliyotlarda belgilangan identifikatsiyalangan va identifikatsiyalanmagan Elektron pullar egalari uchun cheklovlarni inobatga olgan holda to'lovlar va boshqa amaliyotlarni amalga oshiradi:
- merchant foydasi uchun to'lovlar - tovarlar, ishlar va xizmatlar uchun to'lov;
  - elektron pullarni Tizimning boshqa Ishtirokchilari – jismoniy shaxslar va Agentlar foydasiga o'tkazish.
- 18.9. Elektron pullardan foydalangan holda to'lovni amalga oshirish Elektron pullar egasining Operatorning internet resursi va/yoki mobil ilovasidagi shaxsiy kabineti orqali amalga oshirish shartlariga muvofiq shakllantirilgan va Tizimdan uzatilgan tegishli ko'rsatmasiga asosan olib boriladi.
- 18.10. Elektron pullar bilan amaliyotlarni olib borish uchun Operator Tizim Ishtirokchilari bilan shartnoma va Operatorning Tariflariga muvofiq komission mukofot olishi mumkin.
- 18.11. Tizimda Ishtirokchining (EP jo'natuvchi) Elektron pullari qoldig'ining kamayishi va Tizimning boshqa Ishtirokchisi (EP oluvchi) ning Elektron pullari qoldig'ining ko'payishi bir vaqtning o'zida Elektron pullar o'tkazmalari qiymatida sodir bo'lganda o'tkazma yakunlanadi. O'tkazmaning mazkur Qoidalarda o'rnatilgan miqdordagi qiymatidan Elektron pullarning qoldig'i bir vaqtning o'zida oshib ketgan holat istisnoli holat hisoblanadi.
- 18.12. Elektron pullarni Tizimda oluvchining elektron hamyonidan jo'natuvchining elektron hamyoniga qaytarish quyidagi hollarda amalga oshirilishi mumkin:
- qoidalarda nazarda tutilgan asoslarga ko'ra, xususan:
    - a. elektron pullarni o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilgan ruxsatsiz to'lov fakti aniqlanganda;
    - b. Agar Tizimda pul o'tkazmalarini qabul qiluvchining rekvizitlari noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa (jo'natuvchi qabul qiluvchining rekvizitlarini to'g'ri ko'rsatgan hollarda);
    - c. agar Elektron pullar o'tkazmasini ko'rsatish takror berilgan bo'lsa.
    - d. elektron pullarni jo'natuvchi tomonidan elektron pullarni o'tkazish bo'yicha ko'rsatmasida xatoga yo'l qo'ygan taqdirda (xususan, elektron hamyonning raqami noto'g'ri ko'rsatilganda).
- 18.13. Elektron pullarni qaytarish imkoni uchun Elektron pullarni jo'natuvchi Operatorga yozma ravishda yoki o'tkazma jo'natuvchisini identifikatsiyalovchi va amaliyot olib borilganligini tasdiqlovchi (chek/kvitansiya yoki ko'chirma) hujjatlarni taqdim etgan holda elektron xabar yo'li bilan murojaat etishi lozim. Shundan so'ng Operator o'tkazmani oluvchini jo'natuvchi tomonidan yo'l qo'yilgan xato va Elektron pullarni mazkur shaxsga qaytarish zarurligi to'g'risida xabardor qiladi. Elektron pullarni jo'natuvchiga qaytarish oluvchi tomonidan Tizimda Elektron pullarni jo'natuvchiga qaytarish to'g'risidagi xato o'tkazma ko'rsatilganligiga asosan (agar oluvchi Merchant bo'lsa – faqat uning Elektron hamyonidan pullarni akseptsiz olishga roziligi asosida) amalga oshiriladi, bunda komissiya to'lovlarini to'lash bo'yicha xarajatlar (ular mavjudligida) o'tkazishda qaytarilmaydi;

- 18.14. Tizim Mijoz-jismoniy shaxs va Merchant o'rtasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha tuzilgan fuqarolik-huquqiy bitim buzilgan holda, xususan, Tizim Mijoz tomonidan Merchantning Elektron pullardan foydalanib qo'lga kiritgan fuqarolik-huquqiy bitimining predmetini rad etgan va bunday rad etish Merchant tomonidan qabul qilingan taqdirda quyida majburiy shartlar mavjudligida Elektron pullar qaytariladi:
- Merchant va Mijoz – Tizim Ishtirokchisi Operatorga Elektron pullarni qaytarishni so'rab, bunday qaytarish sabablarini va Tizim Mijoz Elektron hamyonining identifikatsion raqamini ko'rsatgan holda arizani taqdim etishadi;
  - tizim Merchant va Mijozidan Elektron pullarni qaytarish bo'yicha arizalarini olish vaqtiga kelib, qayd etilgan Elektron pullar Emitent tomonidan Merchantga qaytarilmagan bo'lsa.
- 18.15. Shartlarga rioya qilinganda va Tizim Merchant va Mijoz tomonidan ko'rsatilgan arizalarda Elektron pullarni qaytarish sababi mazkur Qoidalarning bandostilarida nazarda tutilgan qaytarish sababiga to'g'ri kelsa, Tizimda 2 (ikki) ish kuni ichida Elektron pullar Merchantning Elektron hamyonidagi Mijozning Elektron hamyoniga (Merchantdan bunday o'tkazmaga hech qanday qo'shimcha ko'rsatma olinmagan holda) o'tkaziladi. Tizim Mijozidan Elektron pullarni Merchant hisobiga o'tkazishda Operatorga berilgan komission mukofot qaytarilmasligi lozim.
- 18.16. Agar Merchant va Tizim Mijoz ariza taqdim etilganda Merchantning Elektron pullari Emitent tomonidan qaytarilmagan bo'lsa, u holda Elektron pullarni qaytarish amalga oshirilmaydi. Qayd etilgan holatda Merchant mustaqil Tizim Mijoz bilan muddatlarni kelishgan tarzda unga Tizim Mijoz tomonidan tovar/ish/xizmatlar uchun Elektron pullar orqali to'langan teng qiymat miqdoridagi pullarni qaytaradi (Tizim Mijoz tomonidan Operatorga Tizim Mijoziga qaytarilishi lozim bo'lmagan o'tkazma vaqtida to'langan komissiya hisobga olinmagan holda).
- 18.17. Tizim Ishtirokchilarining pul mablag'lari va Elektron pullar bilan amaliyotlarni o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmasi u Emitent/Tizim Operatori tomonidan ijro etilganidan so'ng chaqirib olinishi mumkin emas. O'tkazilgan amaliyotlar yakuniy va tugallangan hisoblanadi.

## 19. ELEKTRON HAMYONLARNI BLOKIROVKALASH TARTIBI

- 19.1. Operator Elektron pullar Egalarining elektron hamyonlarini blokirovkalashni amalga oshiradi. Elektron hamyonlarni blokirovkalash quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
- elektron pul egasidan elektron hamyonini yo'qotgani, o'g'irlatgani yoki undan ruxsatsiz foydalanilganligi to'g'risida xabar olinganda;
  - elektron pullar egasining shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganida;
  - amaliyotlarni qonunchilikning belgilangan talablari va Elektron pullardan foydalanish shartlarini buzgan holda bajarish;
  - qonunchilikda, Tizim Qoidalari, mazkur bo'lim va Elektron pullar egasi va Operator o'rtasida tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.
- 19.2. Hamyon Egasi/uchinchi shaxslarning tovlamachilik harakatlariga shubha uyg'onganda, dasturiy-ta'minot vositalarida nosozlik aniqlanganda Elektron pullar Tizimining xavfsizligini ta'minlash maqsadida Operator mustaqil ravishda elektron hamyonni blokirovkalaydi.
- 19.3. Agar Operatorning fikriga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Qoidalarning talablari, shuningdek, elektron hamyon Egasi va Operator o'rtasida tuzilgan Oferta va (yoki) boshqa shartnomalarning shartlarida nazarda tutilgan hollarga rioya qilish zarur bo'lgan taqdirda Operator

Elektron pullar Egasining hamyonga kirishi yoki Elektron pullardan foydalangan holda amaliyotlarni bajarishini vaqtincha blokirovka qilishga haqli hisoblanadi.

19. 4. Elektron pullar Egasining Tizimning mazkur Qoidalarida belgilangan Elektron pullar bilan bog'liq amaliyot turlari va qiymatini suiiste'mol qilishi, shuningdek, Operator tomonidan elektron hamyon Egasining o'zining shaxsiy mualliflik o'lchamlari (foydalanuvchining ismi, paroli) haqidagi axborotni boshqa shaxslarga berganligi aniqlangan taqdirda elektron hamyon blokirovkalanishiga olib keladi.
19. 5. Elektron hamyonga ruxsatsiz kirish yoki undan Elektron pullarning o'g'irlanishiga tahdid yuzaga kelgan taqdirda Elektron pullarning Egasi o'zining Tizimdagi shaxsiy Kabineti orqali elektron hamyonini mustaqil ravishda blokirovkalashi yoki Operatorga elektron hamyoninini blokirovkalashini so'rab telefon yoki yozma talab qilishi mumkin.
19. 6. Elektron hamyonni blokirovka qilinishiga sabab bo'lgan holatlar bartaraf etilganda Operator Elektron pullar Egasining arizasiga binoan elektron hamyon blokirovkasining bekor qilinishini amalga oshiradi. Agar blokirovka Operator tomonidan Emitentning elektron hamyonni blokirovkalash to'g'risidagi so'roviga asosan amalga oshirilgan bo'lsa, u holda Operator blokirovkani echishni Emitent bilan kelishgan holda bajaradi.

## 20. ELEKTRON HAMYONLARNI YOPISSH TARTIBI

20. 1. Emitent Elektron hamyonlarning yopilishini amalga oshirmaydi. Mazkur vazifa faqat Operatorga tegishlidir.
20. 2. Elektron hamyon Egasining elektron hamyonning identifikatsiyalash kodi va shaxsiy kabinetiga kirish paroli ko'rsatilgan arizasi asosida yoki Emitentning talabi bilan Elektron hamyonni yopish Operator tomonidan amalga oshiriladi.
20. 3. Elektron hamyon faqat unda Elektron pullar yo'qligidagina Operator tomonidan yopiladi.
20. 4. Tizim faoliyati to'xtatilgan taqdirda Operator Tizim yopilishidan 1 oy oldin tegishli xabarlarni joylashtirish va (yoki) sms xabarlarini tarqatish orqali elektron hamyon Egalarini xabardor qiladi. Elektron hamyon egalari ularning elektron hamyonlaridagi Elektron pullarni to'lash huquqiga ega, buning uchun ular Operator/Emitentga murojaat qilishlari lozim.
20. 5. Tizim faoliyati to'xtatilgan taqdirda Operator Markaziy Bankni Tizim faoliyati to'xtatilganligi haqida tizim yopilishidan 1 oydan kechikmagan holda xabar qilishi shart.

## 21. ELEKTRON PULLAR EGASINI AUTENTIFIKATSIYALASH

21. 1. Elektron hamyonlarga kirish va ulardan foydalangan holda har qanday amaliyotlarni bajarish faqat Elektron pullar egasini autentifikatsiyalagandan so'nggina amalga oshirilishi mumkin.
21. 2. Elektron pullar Egasining elektron hamyonga kirishda autentifikatsiyalash Tizimning dasturiy ta'minoti orqali Elektron pul Egasining ro'yatdan o'tgan ma'lumotlaridan ixtiyoriy yoki kombinatsiyali ko'rinishda logini, paroli, biomertik ma'lumotlari, uyali aloqa telefonining raqami, zarurat tug'ilganda, maxsus SMS xabarlardan foydalangan holda amalga oshiriladi.



## 22. TO'LOV XIZMATLARI (TARIFLARI) NING QIYMATI

- 22.1. Operatorning «A-Pay» Tizimida taqdim etiladigan xizmatlar bo'yicha xizmatlari pulli hisoblanadi.
- 22.2. Tizim Ishtirokchilari Operator ko'rsatgan xizmatlar uchun Operator tomonidan o'rnatilgan miqdor va tartibda to'lovni bajarish majburiyatini oladilar.
- 22.3. Komission mukofot ko'rsatilgan Tariflar Operatorning rasmiy sayti va mobil ilovasida joylashtiriladi.

## 23. TO'LOV TASHKILOTLARI TOMONIDAN KO'RSATILADIGAN TO'LOV XIZMATLARINI TEXNOLOGIK JIHATDAN TAMINLAYDIGAN UCHINCHI SHAXSLARNING O'ZARO HAMKORLIGINING TARTIBI

- 23.1. To'lov xizmatlarini ta'minlash xizmatini ko'rsatuvchi uchinchi shaxslar bilan o'zaro hamkorlik Tizim Operatori sifatida «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJning shartnomaviy munosabatlariga asoslanadi.
- 23.2. Uchinchi shaxslar bilan texnik hamkorlik Operatorning tizim integratsiyasi va uchinchi shaxslarning to'lov xizmatlarini taqdim etish xavfsizligiga rioya qilish uchun yetarli darajadagi shifrlash shartnomasi asosida olib boriladi..

## 24. MAXFIYLIK, AXBOROT XAVFSIZLIGI CHORALARIGA RIOYA QILINISHINING TARTIBI

- 24.1. Foydalanuvchilarning elektron hamyonlari xavfsizligi login va parol asosida, shuningdek, zarur hollarda biometrik ma'lumotlardan foydalangan holda foydalanuvchining roziligi bilan amalga oshiriladi.
- 24.2. Tizimda tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun foydalanuvchi SMS yoki PUSH xabarlarini yordamida operatsiyani tasdiqlashi kerak.
- 24.3. Internet-do'kondan to'lovlarni amalga oshirish xavfsizligi foydalanuvchining xohishiga ko'ra tanlangan SHA yoki MD5 shifrlash bilan ta'minlanadi.
- 24.4. Barcha tizim ulanishlari boshqa serverlar bilan shifrlangan tunnel ulanishlariga asosan amalga oshiriladi.
- 24.5. Ushbu Qoidalarga qo'shilish munosabati bilan Tizim Ishtirokchilariga ma'lum bo'lgan Tizimning boshqa Ishtirokchilari to'g'risidagi hammaga ochiq bo'lmagan ma'lumotlarga nisbatan agar quyidagi hollardan tashqari maxfiylikka rioya qilish majburiyatini oladi:

- mazkur axborotning Egasi hisoblangan Tizim Ishtirokchisining talabi yoki ruxsati bilan fosh etilganda;
  - mazkur Qoidalarga nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan hajmda uchinchi shaxslarga taqdim etish mumkin;
  - qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha fosh etilishini talab qiladi.
24. 6. Quyidagi hollarda Tizim Ishtirokchilarining maxfiyligi va xavfsizligi buzilmagan hisoblanadi:
- huquqni muhofaza qilish va boshqa vakolatli davlat idoralarining qonuniy talablari bo'yicha maxfiy axborotni taqdim etish.
24. 7. Ishtirokchi Tizim Operatori Ishtirokchi o'zining ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga bergan, qasddan o'zining Shaxsiy kabinetiga kirish imkonini berish yoki mazkur Ishtirokchining boshqa maxfiylikni buzganlik holatlarida Ishtirokchi oldida javobgar emasligini tan oladi.
24. 8. Mijoz unga taqdim etilgan kodning faolligi yo'qolgan taqdirda mumkin bo'lgan oqibatlari uchun Tizim Operatori javobgar hisoblanmasligini tan oladi.
24. 9. Ishtirokchi uning roziligisiz amalga oshirilgan har qanday amaliyot to'g'risida zudlik bilan Tizim Operatorini xabardor qilishga majbur (Tizim Operatorining Foydalanuvchilarini qo'llab-quvvatlash Xizmatiga murojaat qilish va Tizim Operatori xodimi tomonidan amaliyot sodir bo'lgan vaqtdan boshlab 3 soat davomida bunday murojaatning tasdiqlanishi). Tegishli xabarnoma amaliyot bajarilgan vaqtdan boshlab 3 soat davomida taqdim etilmagan va Ishtirokchiga tegishli xabarnoma jo'natilmagan taqdirda amaliyot Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilgan hisoblanadi.
24. 10. Agar Tizim Operatoriga elektron hamyonga uchinchi shaxsning kirishi holati aniqlanishi munosabati bilan uni blokirovkalash to'g'risida ko'rsatma kelib tushsa, biroq blokirovkalash to'g'risida ariza bergan shaxs elektron hamyonning egasi ekanligini isbotlay olmasa, Tizim Operatori mazkur elektron hamyon bilan bog'langan to'lov manbalari orqali yoki ular bilan amalga oshiriladigan barcha amaliyotlarini to'xtatadi. Amaliyotni tugallash va/yoki bekor qilish elektron hamyon egasining shaxsi tasdiqlangandan va undan amaliyotni tugatish va/yoki bekor qilish to'g'risida ko'rsatma olganidan so'ng amalga oshiriladi.
24. 11. Tizim Operatori Mijozning shaxsiy kabinetini, elektron hamyonini Qoidalarda ko'rsatilgan hollarda va Mijoz bilan kelishgan holda, shuningdek, Mijozning so'rovnomasi bilan blokirovkalab qo'yishi mumkin.
24. 12. Tomonlar autentifikatsiya ma'lumotlarini Ishtirokchining shaxsiy kabinetini, elektron hamyoniga kirish huquqini tasdiqlashda zarur va yetarli sharti hisoblangan qo'lda yozilgan imzoning analogi sifatida e'tirof etadilar.
24. 13. Uch marotaba parol noto'g'ri kiritilganda ilovaga kirish 1 daqiqaga bloklanadi, kirishga urinish amalga oshirilgan o'n marotaba IP manzilga noto'g'ri parolning terilishi natijasida 24 soatga bloklanadi. Manzillarning bloklanishi Mijoz Tizimning Foydalanuvchilarni Qo'llab-quvvatlash Xizmatiga murojaati va uning shaxsi aniqlanganidan so'ng yechiladi.
24. 14. Mijoz tomonidan tovlamachilik harakatlari sodir etilganda va/yoki shunday harakatlarga shubha uyg'onganda, banka kartalari Emitentining so'rovnomasi bilan Tizim Operatori hech qanday cheklovlarisiz Mijozlarning bunday harakatlari va Tizimdagi faolligi bo'yicha axborotni tegishli Emitentlarga berish, shuningdek, huquqni muhofaza qilish idoralariga murojaat qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

## 25. TAVAKKALCHILIKLARNI BOSHQARISH USULLARI

25.1. Tavakkalchiliklarni boshqarish usullari tashkilotning birinchi rahbari tomonidan tasdiqlangan «Tavakkalchiliklarni boshqarish tizimi» ichki hujjati bilan belgilanadi.

## 26. TIZIMNING UZLUKSIZ ISHLASHINI VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

- 26.1. Operator profilaktik ishlar o'tkazilishidan tashqari «A-Pay» elektron pullar Tizimining uzluksiz 24/7/365 (kuniga 24 soat, haftasiga 7 kun, yilda 365 kun) rejimda ishlashini ta'minlaydi.
- 26.2. Operator axborot xavfsizligini ta'minlash vositalari va usullarini, unga Tizimdagi faoliyati davomida ma'lum bo'lgan va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq majburiy himoyalaniishi lozim bo'lgan shaxsiy ma'lumotlar va boshqa axborotlarning himoyalaniishini ta'minlaydi.
- 26.3. Tizim Ishtirokchilari almashinuvi Tizimda amalga oshiriladigan yoki Tizim Ishtirokchilariga Tizimda foydalanishlarida foydalanadigan axborotlar va hujjatlarning xavfsizligi va himoyasi bo'yicha, shuningdek, tovlamachilikni aniqlash (oldini olish) va jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni qonuniylashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha barcha zarur choratadbirlarni ko'rish majburiyatini oladi.
- 26.4. Tizimda qo'llaniladigan himoyaning texnik vositalarini ham hisoblaganda dasturiy-ta'minot vositalariga ruxsatsiz kirishning oldini olishga qaratilgan vositalar va choralar qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq axborotni himoya qilish hamda uning maxfiyligini saqlash darajasini ta'minlashi lozim. Tizim Ishtirokchilari maxfiylikni saqlash, ruxsatsiz foydalanishning oldini olish va uchinchi shaxslarning identifikatsiya ma'lumotlariga ruxsatsiz kirishlaridan himoya qilish bo'yicha barcha choralarni ko'rish majburiyatini oladilar.
- 26.5. Ishtirokchi tomonidan mualliflikdan o'tgan ma'lumotlar yo'qotilgan taqdirda Operator Ishtirokchiga uning tomonidan Operator o'rnatgan shakl bo'yicha tegishli arizani berish yo'li bilan elektron hamyonga kirishini tiklash imkonini taqdim etadi. Bunda elektron pullarning identifikatsiyalanmagan Egasi – jismoniy shaxs elektron hamyoniga kirishni tiklash uchun Operator tomonidan o'rnatilgan shaklda ariza beradi, shuningdek, kirish tiklanadigan elektron hamyon egasi ekanligi va foydalanishi uchun dalillarni taqdim etadi (masalan, hamyondan foydalangan holda amalga oshirilgan so'nggi amaliyotlar ro'yxatini taqdim etish, uyali aloqa operatori bilan shartnomani taqdim etgan holda), bunda ko'rsatilgan dalillarning ishonchligi Operatorning mutlaqo xohishiga ko'ra aniqlanadi.

## 27. ELEKTRON XABARLARNI ALMASHISH

- 27.1. Emitent, Operator, Agentlar va Merchantlar o'rtasida elektron xabarlarni almashish Operator tomonidan o'rnatilgan ma'lumot uzatish shaklida Tizimda olib boriladi. Tizimda elektron xabarlar bilan almashinuv tartibi Operator tomonidan belgilanadi.
- 27.2. Operator elektron xabarlarning autentifikatsiya tartibini ishlab chiqadi va unga rioya etilishini nazorat qiladi.
- 27.3. Elektron xabarlar davlat tilida yoziladi. Boshqa tillardan foydalanish imkoniyati Operator tomonidan belgilanadi.
- 27.4. Elektron xabarlar shakllangan va uzatilganda Tizim Ishtirokchilari ular o'rtasidagi shartnomalarda o'rnatilgan ruxsatsiz to'lovlardan himoyalash harakatlarining tartibiga rioya qiladilar.
- 27.5. Operator, Emitentlar, Agentlar yuborilgan va qabul qilingan elektron xabarlarning ishchi munosabatlar tugatilgan vaqtdan boshlab kamida 5 (besh) yil davomida saqlanishini ta'minlaydi.

## 28. TIZIM ISHTIROKCHILARINING MAS'ULIYATI:

- 28.1. Emitentlar Tizim Ishtirokchilari oldida Elektron pullarni chiqarish va so'ndirish bo'yicha o'zlari olgan majburiyatlari doirasida Tizim Ishtirokchilari tomonidan Elektron pullarni Chiqarish va So'ndirish uchun javobgar bo'ladilar.

## 29. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 29.1. Operator va/yoki Emitent agar Elektron pul Egasining tegishli ko'rsatmasini bajarish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Qoidalar va Tizim Ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnomalarning talablari buzilishiga olib kelsa, u holda Elektron pullar bilan amaliyotlar o'tkazilishini to'xtatadi yoki rad qiladi.
- 29.2. Operator Elektron pullar bilan amaliyotlar o'tkazilishi to'xtatilganligi/rad etilganligi to'g'risida zudlik bilan Elektron pullar Egasini unga rad etilish sababi ko'rsatilgan elektron habarni jo'natish yo'li bilan xabardor qiladi.
- 29.3. Tizim Ishtirokchilari yuzaga kelgan barcha masalalar bo'yicha Operatorning Qo'llab-quvvatlash xizmatiga aloqa telefonlari va Operator yoki Emitentning internet resursida joylashgan elektron manzillariga murojaat qilishlari mumkin.
- 29.4. Tizim Ishtirokchilari o'rtasida Tizimda ishtirok etish va Elektron pullardan foydalangan holda to'lov hamda boshqa amaliyotlarni amalga oshirish bilan bog'liq e'tirozlar qonunchilik, mazkur Qoidalar va ular o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq hal qilinadi. Tizim Ishtirokchilari da'volari Ishtirokchilar oldidagi majburiyatlarga muvofiq Operatorga yoki Emitentga yuboriladi.
- 29.5. Operator yoki Emitent tomonidan Ishtirokchilarning Tizimda ishtirok etishi va Elektron pullar bilan amaliyotlarni olib borishi bilan bog'liq da'volarini ko'rib chiqish tartibi:

29. 6. Da'voda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- jismoniy shaxslar uchun - ism, familiya, otasining ismi, elektron hamyon raqami, elektron manzili, javob yuborilishi kerak bo'lgan yashash joyidagi ro'yxatdan o'tish manzili, jismoniy shaxs imzosi (agar da'vo yozma tarzda yuborilgan bo'lsa), aloqa uchun telefon raqami, shuningdek, murojaatni tasdiqlovchi mavzu, mohiyat va holatlar;
- yuridik shaxslar uchun - nomlanishi, yuridik manzil, elektron hamyon raqami, shuningdek, yozishmalarni yuborish uchun pochta manzili, ishonchnoma bo'yicha rahbar yoki shaxsning imzosi (agar da'vo yozma tarzda yuborilgan bo'lsa), aloqa uchun telefon raqami, da'vo tuzilgan sana va manzil; murojaatni tasdiqlovchi mavzu, mohiyat va holatlar.

29. 7. Ariza beruvchi da'vo arizasida ilova qilayotgan zarur hujjatlarning nusxalarini (to'lov qog'ozi, to'lov qog'ozidan ko'chirma, kvitansiya va cheklar) ham birga taqdim etadi.

29. 8. Operator da'voni ko'rib chiqadi va Ishtirokchining tegishli da'vosi qabul qilingan kundan boshlab 5 (besh) kalendar kuni ichida da'vogar tomonidan ko'rsatilgan manzil/elektron manzilga da'voga javob yuboradi.

29. 9. Agar da'vo asosli deb topilgan bo'lsa, aniqlangan kamchiliklar Operator tomonidan oqilona muddat ichida bartaraf etilishi kerak.

29. 10. Tizim Ishtirokchilari bahsli muammolarni xolis ko'rib chiqish uchun o'zaro kelishuv asosida Operator ishtirokida ekspert komissiyalarini tuzishi mumkin. Ekspert komissiyalari aniq bahsni ko'rib chiqish uchun tuziladi. Ekspert komissiyasining yig'ilish vaqti haqida Ishtirokchilar - manfaatdor tomonlar Operator tomonidan o'z vaqtida (2 (ikki) ish kunidan kam bo'lgan muddatda) xabardor qilinishi shart. Komissiya ishlarining natijalari ekspert xulosasi shaklida rasmiylashtiriladi. Ekspert xulosasida Tomonlarning qabul qilingan qarorni bajarish muddatlari, komissiya qarorini bajarish bilan bog'liq majburiyatlarni taqsimlash (zarurat tug'ilganda - Tomonlar o'rtasida moddiy xarajatlarni taqsimlash tartibi) ko'rsatilishi shart.

29. 11. E'tirozni ko'rib chiqish rad etilganda yoki bahsni sud ishtirokisiz hal qilish imkoni bo'lmagan taqdirda Ishtirokchi o'zining qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilinishini so'rab Toshkent shahrining iqtisodiy masalalar bo'yicha tumanlararo sudiga murojaat qilishga haqlidir.

## 30. MAZKUR QOIDALARGA O'ZGARTIRISH KIRITISH TARTIBI

30. 1. Operator Tizim doirasida xizmatlaridan foydalanishda qabul qilingan o'zgarishlarni Tizimning internet resursida u kuchga kirguniga qadar 15 (o'n besh) kalendar kun ichida chop etish majburiyati bilan mazkur Qoidalar va Tariflarni o'zgartirish va/yoki to'ldirish huquqiga ega bo'ladi.

30. 2. Qoidalar, Tariflarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar yangi tahrirdagi Qoidalar, Tariflarni tasdiqlash yo'li bilan ham, Qoidalar, Tariflarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalarga matn tayyorlash yo'li bilan ham kiritilishi mumkin.

30. 3. Operator o'zining internet resursida Qoidalar, Tariflarga kiritilgan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar to'g'risidagi tegishli axborotni joylashtirish yo'li bilan Ishtirokchilarni xabardor qiladi.

30. 4. Ishtirokchi Qoidalar, Tariflarga o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar bilan rozi bo'lmagan taqdirda o'zidagi mavjud Elektron pullarni o'chirib (to'lab) va Tizimdagi elektron hamyonini yopib, kelgusida Tizimdan foydalanishdan bosh tortishga haqli hisoblanadi.

30. 5. Qoidalar, Tariflarga kiritilgan har qanday o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kuchga kirganidan so'ng Tizimdan kelgusida foydalanish Ishtirokchilarning bunday o'zgartirish/to'ldirishlarga roziligini anglatadi.

30. 6. O'zgarishlarning kuchga kirish muddati agar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritilgudek bo'lsa, qisqarishi va ijro etish zarurligi hamda Tizim faoliyatini amaldagi qonunchilikka va (yoki) qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarning talablariga muvofiqlashtirish lozim bo'ladi.

## 31. QO'SHIMCHA SHARTLAR

31. 1. Operator Emitentga ularning o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan tartib va muddatlarda Emitent tomonidan chiqarilgan elektron pullarni sotish, ishlatish va to'lash bo'yicha zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.
31. 2. Tizim ishtirokchilari quyidagi majburiyatlarni o'z zimmlariga oladilar:
  - «A-Pay» Tizimi orqali noqonuniy bo'lgan moliyaviy amaliyotlarni, noqonuniy savdoni, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadlarni legallashtirish (yuvish), terrorizm/ekstremizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurollari tarqalishini moliyalashtirishni amalga oshirmaslik;
  - noqonuniy savdo qilish, noqonuniy moliyaviy amaliyotlar, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadlarni legallashtirish (yuvish) ga, va terrorizm/ekstremizmni moliyalashtirish, ommaviy qirg'in qurollari tarqatilishini moliyalashtirishga yo'naltirgan amaliyotlarning oldini olish;
  - Elektron pullar egasi «A-Pay» Tizimidan noqonuniy foyda olish yoki daromadlarni yashirishga qaratilgan amaliyotlarni amalga oshirish huquqiga ega emas. Elektron pullar egasi tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazmasdan yoki ro'yxatdan o'tkazish qoidalarini buzgan holda, yoki litsenziya talablarini buzganlik uchun jinoiy va ma'muriy javobgarlikka tortilish to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor hisoblanadi.
31. 3. Mazkur Qoidalarda tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartibda hal qilinadi.
31. 4. Tizim Ishtirokchilari mazkur Qoidalarning barcha bandlari, Tizim Tariflari bilan tanishib chiqqanliklari, va barcha shartlarni to'liq tushunganliklarini, shuningdek hech qanday istisnolarsiz ularni qabul qilishlarini tasdiqlaydilar.
31. 5. Ishtirokchilar Operatorlar va boshqa ishtirokchilar tomonidan shaxsiy ma'lumotlar, ya'ni Ishtirokchilarga tegishli bo'lgan elektron, qog'oz va (yoki) boshqa moddiy tashuvchida qayd etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish hamda ishlov berishga o'zlarining so'zsiz va qaytarilmas roziliklarini taqdim etadi. Shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish va unga ishlov berish quyidagi ma'lumotlarni cheklamagan holda Tizimda nazarda tutilgan to'lovlar, o'tkazmalar va boshqa amaliyotlarni, Emitent va/yoki Tizimning boshqa Ishtirokchilari tomonidan marketing kommunikatsiyalarini bajarish, shuningdek, boshqa zarur hollarda Tizim faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlik kiritish (yangilash, o'zgartirish), tarqatish, blokirovkalash, yo'q qilishni amalga oshirilishini anglatadi.
31. 6. Tizim Ishtirokchilari Operatorga ma'lumotlarni, shu jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni, Tizim Ishtirokchilariga xabarlarini, shu jumladan, reklama ko'rinishidagi xabarlarini, mobil telefon raqamiga, Elektron hamyonni va Tizimning sayti va/yoki mobil ilovasida Ishtirokchini ro'yxatdan o'tkazish vaqtida elektron pochta manzillarini topshirishga rozilik beradi.

**TO'LOV TASHKILOTI**  
**«CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY**  
**AND INNOVATION» MCHJ.**  
**«A-PAY» ELEKTRON PULLAR TIZIMI OPERATORI**

100090, O'zbekiston Respublikasi,  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,  
A. Qahhor ko'chasi, 9-tor ko'cha, 1a-uy  
STIR: 306 344 019  
h/r: 2020 8000 4050 6594 4001  
«Trastbank» XAB OPERBga  
MFO: 00491,  
Bank STIRi: 201 055 090  
OKED: 58290  
Tel: (+99855) 500 11 10